

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**MAGISTRATURA BO'LIMI**

**Qo'lyozma huquqida**

**UDK: 658.1**

**XALILOV FARXOD NASRILLAYEVICH**

**IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA  
QIMMATLI QOG'OZLAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Mutaxassislik: 5A230902-"Audit" (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)**

**Magistrlik akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:**

**i.f.n., dots. M.Rahimov**

**TOSHKENT-2015**

**Dissertatsiya ishi Toshkent moliya instituti “Audit” kafedrasida bajarilgan.**

**Ilmiy rahbar**

**i.f.n., dotsent. M.Rahimov**

**Kafedra mudiri**

**i.f.n., dotsent I.Qo'ziyev**

**Magistratura bo'limi boshlig'I**

**i.f.n., dotsent U.Ortiqov**

## MUNDARIJA:

|                                                                                                                                                |           |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| <b>Kirish .....</b>                                                                                                                            | <b>3</b>  |
| <b>I bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qimmatli qog'ozlar auditining nazariy asoslari .....</b>                                 | <b>7</b>  |
| <b>1.1. Korporativ boshqaruv sharoitida qimmatli qog'ozlarning tutgan o'rni va ahamiyati. ....</b>                                             | <b>7</b>  |
| <b>1.2. Qimmatli qog'ozlar auditining maqsadi, vazifalari va me'yoriy – huquqiy asoslari .....</b>                                             | <b>20</b> |
| <b>I bob bo'yicha xulosa</b>                                                                                                                   | <b>27</b> |
| <b>II bob. Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida qimmatli qog'ozlar auditini tashkil qilish va o'tkazish. ....</b>                     | <b>28</b> |
| <b>2.1. Qimmatli qog'ozlar auditini rejalashtirish. ....</b>                                                                                   | <b>28</b> |
| <b>2.2. Qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalarni tekshirishda auditorlik amallarini qo'llashning o'ziga xos jihatlarini .....</b> | <b>34</b> |
| <b>2.3. Qimmatli qog'ozlar auditini natijalarini umumlashtirish jarayoni.</b>                                                                  | <b>47</b> |
| <b>II bob bo'yicha xulosa</b>                                                                                                                  | <b>53</b> |
| <b>III bob. Qimmatli qog'ozlar auditini takomillashtirish .....</b>                                                                            | <b>54</b> |
| <b>3.1. Qimmatli qog'ozlar auditining uslubiy jihatlarini takomillashtirish .....</b>                                                          | <b>54</b> |
| <b>3.2. Qimmatli qog'ozlari auditini o'tkazishda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash. ....</b>                                        | <b>60</b> |
| <b>III bob bo'yicha xulosa</b>                                                                                                                 | <b>67</b> |
| <b>Xulosa .....</b>                                                                                                                            | <b>68</b> |
| <b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati. ....</b>                                                                                                |           |
| <b>Ilovalar .....</b>                                                                                                                          |           |

## Kirish

### **Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.**

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida amalga oshirilayotgan ko'pgina tadbirlar avvalo tarmoq va hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ularni amalga oshirishda davlat tomonidan ishlab chiqiladigan qonun-qoidalarning o'рни beqiyosdir. Xo'jalik yuritishning yangi tashkiliy-huquqiy shakllari paydo bo'lishi, tadbirkorlikka erkinlik hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga o'z moliyaviy resurslaridan foydalanishda mustaqillik berilishi, investitsiyalarni jalb qilish uchun huquqiy va iqtisodiy sharoitlar yaratilganligi, yangicha moliya vositalari va omillarning vujudga kelishi investitsiyalashning ilgari amalda bo'lgan tashkiliy mexanizmini tubdan isloh qilmoqda. Iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish, ishlab chiqarishning texnik va texnologiya jihatdan modernizatsiyalashga keng e'tibor berilmoqda. Bu o'z navbatida turli mulkchilik sharoitida biznesni boshqarish tizimini yanada rivojlantirishni talab etadi. Bu haqda Prezidentimiz I.Karimov so'z yuritarkan, shunday deydi: «Korporativ boshqaruv tizimidagi prinsip va yondashuvlarni tubdan o'zgartirish, ishlab chiqarish, tashqi iqtisodiy va investisiya jarayonlariga zamonaviy xalqaro korporativ menejment standartlarini joriy etish jiddiy e'tiborni talab qiladi»<sup>1</sup>, deb ta'kidladilar.

Olib borilgan tadqiqotlar korxonalar faoliyatida qimmatli qog'ozlarni to'g'ri hisobga olish, dastlabki hujjatlashtirish va iqtisodiy samaradorligini baholashda ko'pgina muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Korxonalarida qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq faoliyatini hisobga olish va audit tekshiruvi jarayonida auditning halqaro standartlari talablariga muvofiq ravishda o'tkazilishi iqtisodiyotini rivojlantirish uchun qaratilgan, qolaversa auditorlik faoliyati milliy standartlarini ishlab chiqish va uni amaliyotga tadbiiq etish masalalari bilan, respublikamizdagi va xorijdagi yetuk olimlar bilan birgalikda ishlar olib borilmoqda, shunga qaramasdan ushbu mavzu hali to'liq

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T.: O'zbekiston, 2015. –31 b.

o'rganilib chiqilmagan deb o'ylaymiz.

Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarning iqtisodiyotida qimmatli qog'ozlar auditining halqaro standartlarini rivojlantirish roli salmog'li deb bilamiz, hamda ushbu magistrlik ishida, mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qimmatli qog'ozlar auditini takomillashtirishni alohida tadqiqot sifatida o'rganish lozim deb bildik.

**Tadqiqot ob'ekti va predmeti.** Tadqiqot ob'ekti bo'lib, «FTF-Audit» auditorlik tashkiloti hisoblanadi. Tadqiqot predmeti bo'lib, qimmatli qog'ozlar auditini tashkil etish va takomillashtirish masalalari hisoblanadi.

**Tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari.** Ushbu magistrlik dissertatsiya ishining maqsadi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qimmatli qog'ozlar auditini takomillashtirish yuzasidan tegishli xulosa va takliflarni amaliyotga joriy etish hisoblanadi.

Yuqoridagi maqsaddan kelib chiqib, ishni bajarishda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- iqtisodiyotni difersifikatsiyalash sharoitida korporativ boshqaruv tizmida qimmatli qog'ozlarning o'rni va ahamiyati yoritib berish;
- qimmatli qog'ozlar auditining maqsadi va vazifalarini belgilab berish;
- qimmatli qog'ozlar yaltirilgan investitsiyalarning to'g'riligini tekshirishda auditorlik amallarini qo'llashning o'zi xos jihatlarini tadqiq qilish;
- qimmatli qog'ozlar audit natijalarini umumlashtirishni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;
- qimmatli qog'ozlar auditining uslubiy jihatlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish;
- qimmatli qog'ozlar auditini o'tkazishda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

**Ilmiy yangilik.** Ilmiy yangiliklarni tashkil etuvchi muhim xulosa va takliflar quyidagilardan iborat:

- iqtisodiyotni difersifikatsiyalash sharoitida korporativ boshqaruv tizmida qimmatli qog'ozlarning o'rni va ahamiyati yoritib berildi;

- qimmatli qog'ozlar auditining maqsadi va vazifalarini belgilab berildi;
- qimmatli qog'ozlar yaltirilgan investitsiyalarning to'g'riligini tekshirishda auditorlik amallarini qo'llashning o'zi xos jihatlarini tadqiq qilindi;
- qimmatli qog'ozlar audit natijalarini umumlashtirishni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi;
- qimmatli qog'ozlar auditining uslubiy jihatlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi;
- qimmatli qog'ozlar auditini o'tkazishda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash bo'yicha takliflar berildi.

**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.** Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari quyidagilardir:

- iqtisodiyotni difersifikatsiyalash sharoitida korporativ boshqaruv tizimida qimmatli qog'ozlar auditini o'tkazish o'ta muhim;
- qimmatli qog'ozlar auditida xalqaro standartlardan foydalanish ahamiyati muhim ekanligini ilmiy jihatdan asoslanishi tadqiqot mavzusining uslubiyatini ochib beradi;
- qimmatli qog'ozlar auditida tahliliy amallardan foydalanish maqsadga muvofiqdir;
- qimmatli qog'ozlar auditida milliy va xalqaro standartlardan foydalanishni yanada rivojlanish imkoniyatlarini ochib berish mumkin.

**Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharxi (taxlili).** Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, Prezident I.A.Karimovning mamlakat iqtisodiyotini isloh qilish va bozor munosabatlariga bag'ishlangan farmonlari, asarlari hamda ko'rsatmalari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Moliya Vazirligining buxgalteriya hisobi, hisoboti va audit uslubiyotiga oid me'yoriy hujjatlari, auditorlik faoliyati milliy standartlari, shuningdek, xorijlik va respublikamiz iqtisodchi olimlarning qimmatli qog'ozlar auditini takomillashtirish muammolariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlari tahlili asosida yoritilgan.

**Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi.** Tadqiqot masalalari

bo'yicha shaxsiy kalendar ish rejasi tuzilib, unga ko'ra quyidagi izlanishlar olib borildi:

- tadqiqot uchun zarur bo'lgan usul va yo'nalishlar ro'yxati tuzildi va o'rganib chiqildi xamda tadqiqot o'tkazish uchun tanlab olindi;
- ilmiy-tadqiqot muammosi shakllantirildi va tavsiflandi;
- tadqiqot jarayonida hal etilishi lozim bo'lgan savollar tuzildi;
- tadqiqot dolzarbligi, yangiligi va amaliy ahamiyatga egaligi asoslandi;
- tadqiqot mavzusi bo'yicha mavjud vaziyatlar klassifikatsiyasi va nuqtai nazarlar qiyosiy tahlil qilindi;
- olingan natijalarni yangilik, ob'ektivlik va shubxasizlik, ishonchlilik va yaxlitlik talablariga javob berishi tekshirildi;
- xulosa va takliflar shakllantirildi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiyadagi ilmiy xulosalar va tavsiyalar qimmatli qog'ozlar auditini tashkil etish va o'tkazish imkoniyat yaratadi.

Tadqiqot natijalaridan auditorlik tekshiruvlarni o'tkazishda hamda oliy o'quv yurtlarida amaliy qo'llanma sifatida foydalanish mumkin.

**Ish tuzilmasining tavsifi.** Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

## **I BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA QIMMATLI QOG'OZLAR AUDITINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI**

### **1.1. Korporativ boshqaruv sharoitida qimmatli qog'ozlarning tutgan o'rni va ahamiyati**

O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror va mutanosib rivojlanishi, jahon bozorida mustahkam o'rin egallashi, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, aholi turmush darajasi va farovonligini yanada oshirish olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bu esa jahon iqtisodiyotining globallashtirish ko'lamini tobora kengayib borayotgan bir sharoitda har qanday kon'yunktura o'zgarishlari qarshi tura oladigan, ichki va tashqi bozor talablariga tezlik bilan moslasha oluvchi korxonalarni shakllantirishni taqozo etadi. Shuning uchun innovatsiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga keng joriy etish hamda mahsulot va xizmat turlarini muttasil yangilab borish hisobiga raqobatbardoshlikni ta'minlovchi korporativ tuzilmalarni rivojlantirish zarur.

Mamlakatimizda korporativ boshqaruv printsiplari to'la-to'kis joriy etilishi uchun xalqaro talablarni hisobga olgan holda aktsiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish, shuningdek, ularning investitsiya jarayonlarida hamda iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda keng ishtirokini ta'minlash bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Bu borada Prezidentimiz I.Karimov tomonidan 2015 yil 24 apreldagi "Aktsiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4720 Farmonining qabul qilinishi aktsiyadorlik jamiyatlari faoliyatini rivojlantirishda muhim hisoblanadi. Ushbu Farmonning 8-bandiga muvofiq "Aktsiyadorlik jamiyatlari faoliyatining ochiqqligini oshirish, ular tomonidan xalqaro standartlar asosida audit va moliyaviy hisobot axborotini nashr qilish"<sup>2</sup> belgilab qo'yilgan.

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi "Aktsiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4720 Farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)



Bu holat o'z-o'zidan aktsiyadorlik jamiyatlarida xalqaro audit standartlari asosida auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishni talab qiladi.

Auditorlik tashkilotlari faoliyatining qonuniy-me'yoriy asoslari tarkibida auditorlik standartlari muhim o'rin tutib, ushbu kasb bilan shug'ullanishning muayyan me'yorlarini belgilab beradi. Shu boisdan ham respublikamizda auditning milliy standartlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Auditning milliy standartlarini ishlab chiqishda xalqaro standartlarga tayanilmoqda. Respublikamizda ishlab chiqilayotgan auditning milliy standartlari, avvalo, O'zbekistonda shakllangan iqtisodiy madaniyat va xo'jalik yuritish uslubiga mos kelishi lozim.

O'zbekistonda korporativ tuzilmalar mustaqillikning dastlabki bosqichlaridan iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllariga asoslangan korxona va birlashmalarning paydo bo'lishi, ulardagi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, texnik jihatdan qayta qurollantirishni yanada rivojlantirish natijasida shakllana boshladi. Natijada davlat korxonalari o'rnida mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, shu'ba korxonalar, ochiq va yopiq shakldagi aktsiyadorlik jamiyatlari, qo'shma korxonalar, xo'jalik uyushmalari, xolding kompaniyalari tashkil topdi.

Jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan yangi texnologiyalarning rivojlanishi, tovarlar, xizmatlar va ishchi kuchi bozoridagi raqobatning kuchayishi har bir xo'jalik sub'ektidan ishlab chiqarishni tarkiban yangilash, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish uchun dunyo amaliyotida o'zini oqlagan boshqaruv usullarini o'z faoliyatiga qo'llashni taqozo etmoqda. Bu esa aholining tez o'sib, o'zgarib borayotgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish, zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish, raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish va tovarlar hayotiylik davrining barqaror o'sib borishini ta'minlash, tejamkor texnologiyalarni qo'llash, investitsiya muhitini yaratish hamda zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalanishni dolzarb masalaga aylantirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2014 yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan

iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan ma'ruzasida mamlakatimizda korporativ boshqaruv tizimidagi printsip va yondashuvlarni tubdan o'zgartirish masalalariga alohida e'tibor qaratib, "... aktsiyalashtirish jarayonini rivojlantirish ko'lamining o'sib borayotgani korporativ boshqaruv va aktsiyadorlik jamiyatlari faoliyatidan tushadigan daromadlarni taqsimlash tizimi hamda xususiylashtirish jarayonining boshqa bir qator yo'nalishlarida hal etilmagan ko'plab muammolar mavjudligini yaqqol ko'rsatmoqda"<sup>3</sup> – deb ta'kidlab o'tdi.

Davlat rahbarining ushbu ko'rsatmasi bugungi kunda aktsiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv amaliyotini yanada keng ko'lamda joriy etish zarurligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, ma'ruzada korporativ yoki aktsiyadorlik birlashmalarning faoliyati samaradorligini tanqidiy baholash, ularni xorijiy davlatlardagi ana shunday korxonalar bilan taqqoslab ko'rish zarur ekanligi ta'kidlandi.

O'zbekistonda korxonalar faoliyatiga korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish bilan bog'liq amaliyot yuqorida ta'kidlaganimizdek, bozor islohotlarining amalga oshirilishi, korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish davridan shakllana boshladi. Bu qisqa davrda davlat mulkchiligi monopoliyasini qisman tugatish natijasida xususiy mulkchilikning iqtisodiy munosabatlarning belgilovchi milliy tizim paydo bo'ldi hamda mulkdorlar sinfining shakllanishi uchun shart-sharoit yaratildi. Natijada, mamlakatimizda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlari orqali aktsiyadorlik jamiyatlari tashkil etilishi hamda rivojlantirilishi ularning boshqaruv tizimiga yangicha mazmun kasb etdi(1-jadval).

Natijada aktsiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tamoyillarini qo'llash, korporativ boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirish hamda mulk huquqini taqsimlash borasidagi munosabatlar paydo bo'ldi. O'z navbatida, mulkdorlar tomonidan investitsiya qilgan mablag'larning samarali ishlatilishi hamda ulushlari

---

<sup>3</sup> Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T.: O'zbekiston, 2015. –32 b.

uchun mos ravishda foyda olish imkoniyatlari paydo bo'ldi.

## 1-jadval

### O'zbekistonda korporativ boshqaruv amaliyotining rivojlanish bosqichlari<sup>4</sup>

| Bos - qich lar | Oraliq davrlar           | Belgilari                                                                                                | Mohiyati                                                                                                                                                                                                                   | Natijalari                                                                                                                                                                                                                   |
|----------------|--------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1              | 2                        | 3                                                                                                        | 4                                                                                                                                                                                                                          | 5                                                                                                                                                                                                                            |
| 1              | 1990-1992 yillar         | Mulkchilik munosabatlarini shakllantirish                                                                | Mulkiy munosabatlarning huquqiy asoslari shakllantirildi                                                                                                                                                                   | Korporativ boshqaruvning institutsional asoslarini yaratish bo'yicha ilmiy izlanishlar boshlandi                                                                                                                             |
| 2              | 1993-1997 yillar         | Mulkiy munosabatlarni isloh etish                                                                        | Ko'p ukladli iqtisodiyot yuzaga keldi. Dastlabki aktsiyadorlik jamiyatlari paydo bo'ldi                                                                                                                                    | O'zbekiston Respublikasi "Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi"gi qonuni qabul qilindi                                                                                         |
| 3              | 1998-2002 yillar         | Korporativ boshqaruv munosabatlarining shakllanishi                                                      | O'zbekistonda korporativ boshqaruv tizimining to'laqonli shakllanishi hal qiluvchi bosqichga kirdi                                                                                                                         | Aktsiyadorlik jamiyatlari boshqaruviga korporativ boshqaruv elementlari joriy etildi. Qimmatli qog'ozlar bozori shakllandi                                                                                                   |
| 4              | 2003-2007 yillar         | Korporativ boshqaruv tizimini takomillash-tirish                                                         | Jamiyatda korporativ boshqaruv to'g'risidagi yondashuvlar paydo bo'ldi. Mulkdorlar sinfining shakllanishi hisobiga iqtisodiyotda korporativ tuzilmalarning ahamiyati oshdi                                                 | Aktsiyadorlik jamiyatlari yiriklashtirildi, kuzatuv kengashi vakolatlari kengaytirildi, korporativ maslahatchi, auditor xizmati institutlari joriy etildi.                                                                   |
| 5              | 2008-2010 yillar         | Xalqaro korporativ boshqaruv standartlari va tamoyillarini joriy etish                                   | Mahalliy va xorijiy investorlar uchun imtiyozlar berish tizimi shakllantirildi                                                                                                                                             | Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi salbiy oqibatlari ta'siri bartaraf etildi. Aktsiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligi oshdi                                                                                 |
| 6              | 2011-2014 yillar         | Mulkchilik sohasida muayyan institutsional to'siqlarni bartaraf etish, sog'lom raqobat muhitini yaratish | Davlat ulushi mavjud aktsiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv mexanizmlari takomillashtirildi                                                                                                                      | Investorlar mulkining daxlsizligi ta'minlandi, mulkka egalik qilishi hamda uni tasarruf etish tizimi kuchaytirildi. Aktsiyalashtirish jarayoni ko'lam miqdoran o'sdi                                                         |
| 7              | 2015 yildan keyingi davr | Tarmoq va soha miqyosida korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish mezonlarini ishlab chiqish        | Tarmoq va soha miqyosida korporativ boshqaruv holati va uning samaradorligini oshirish mezonlari ishlab chiqiladi. Korporativ boshqaruvning namunaviy tuzilmalari yaratiladi. "Korporativ boshqaruv kodeksi" joriy etiladi | Korporativ boshqaruvning xorijiy uslubiyotiga asoslangan tajribalari chuqur o'rganiladi. Ishlab chiqarish, tashqi iqtisodiy va investitsiya jarayonlariga zamonaviy xalqaro korporativ menejment standartlari tatbiq etiladi |

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda korporativ boshqaruv

<sup>4</sup> "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2015 yil

amaliyotining dastlabki bosqichi 1990 yillarga to'g'ri keldi. Bu davrda davlat mulkini xususiylashtirish bilan bog'liq turli yondashuvlar o'rganildi va O'zbekiston sharoitiga to'g'ri keladigan xususiylashtirish yo'llari ishlab chiqildi. Mulkiy munosabatlarning huquqiy asoslari shakllantirildi. Natijada 1991 yil noyabr oyida O'zbekiston Respublikasi "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Jamiyatda mulkchilik munosabatlarining shakllantirish jarayonlari boshlandi. Iqtisodiyotning ma'lum tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan, daromad olish maqsadida turli sohadagi kasb egalarining manfaatlari yuzaga keldi. Bu esa O'zbekistonda ilk korporativ munosabatlar shakllanishiga asos bo'ldi.

2-bosqich 1993-1997 yillarni o'z ichiga olib, bu davrda iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishi mulkiy munosabatlarni isloh etishga qaratildi. Iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalarida dastlabki aktsiyadorlik jamiyatlari paydo bo'ldi. Ko'p ukladli iqtisodiyot shakllana boshladi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish natijasida tashkiliy-huquqiy jihatdan turli nodavlat xo'jalik sub'ektlari, jumladan, chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar barpo etildi. Alohida jismoniy shaxslar hamda ularning guruhlar yoki huquqiy maqomga ega bo'lgan shaxslar tomonidan bunday korxonalarning egalari bo'lish imkoniyatlari paydo bo'ldi.

1996 yil 26 aprelda O'zbekiston Respublikasi "Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoyalash to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunning qabul qilinishi bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib xususiylashtirilayotgan mulkni haqiqiy mulk egasi qo'lga topshirish, mulkka munosabatni o'zgartirish, korxonaning moliyaviy pul resurslarini shakllantirishga qaratildi. Shuningdek, iqtisodiy jihatdan nochor, to'lov qobiliyati pasaygan, aylanma mablag'lari etishmaydigan korxonalarni yangi ilg'or texnologiyalar bilan qayta jihozlash uchun aktsiya paketlarini yirik investorlarga sotish orqali yangi moliyaviy resurslarni jalb etish siyosati amalga oshirildi.

3-bosqich 1998-2002 yillarga to'g'ri keldi. Aynan shu davrda O'zbekistonda korporativ boshqaruv tizimini to'laqonli shakllanishi hal qiluvchi bosqichga kirdi.

Iqtisodiyotning o'zak tarmoqlarida keng qamrovli tarkibiy islohotlar va monopoliyadan chiqarish tadbirlari amalga oshirildi. Bu jarayonlar iqtisodiyotda davlat monopoliyasiga barham berish va xususiy mulkchilik shakllanishiga zamin yaratdi. Qimmatli qog'ozlar bozori tashkil topdi. Shu bilan birga ushbu davrda bir nechta O'zbekiston Respublikasi qonunlari qabul qilindi. Jumladan, 1998 yil 20 mayda qabul qilingan "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi, 1998 yil 21 mayda "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi hamda 1999 yil 12 yanvardagi "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari shular jumlasidandir.

4-bosqich Korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, 2003-2007 yillarni qamrab oldi. Bu bosqichda respublikamizda korporativ boshqaruv to'g'risidagi yondashuvlar paydo bo'ldi. Mulkdorlar sinfining shakllanishi hisobiga iqtisodiyotda korporativ tuzilmalarning ahamiyati oshdi. Aktsiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni joriy etish va samaradorligini oshirish bilan bog'liq ilmiy tadqiqot ishlari ko'lami sezilarli ortdi. Xususiylashtirish bilan birga bozor infratuzilmasini barpo etish hamda uni rivojlantirish jarayonlari amalga oshirildi.

Bu tadbirlar aniq maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lib, ular fond va ko'chmas mulk bozorlarini rivojlantirish, sug'urta fondlarini tashkil etish, mulkni baholash hamda boshqaruv institutlarini tashkil etishda o'z aksini topdi. Xususiylashtirish jarayonlarining ijobiy sur'atlarda borishi mamlakatda xususiy mulkdorlar sinfi ortishiga omil bo'ldi. Natijada milliy iqtisodiyotda chuqur institutsional o'zgarishlarni amalga oshirish hisobiga moliyaviy resurslar salmog'ini kengaytirishga imkon yaratildi.

5-bosqich 2008-2010 yillarni o'z ichiga olib, bu davr qisqa bo'lishiga qaramay, milliy iqtisodiyotning rivojlanishida, ichki imkoniyatlardan samarali foydalanishda keskin burilishlar yasadi. Chunki bu davrda yuz bergan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, uning salbiy oqibatlari va uning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'sirining oldini olish va yumshatishga asos bo'luvchi omillar mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ta'kidlab o'tildi hamda ularni hal

etish yo'llari ko'rsatib berildi. Davlat rahbarining "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi"da demokratik bozor islohotlari va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish yo'nalishida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar sifatida mulkdorlar sinfini shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi. Natijada aktsiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish borasida mahalliy va xorijiy investorlar uchun imtiyozlar berish tizimi shakllantirildi.

6-bosqich 2011-2014 yillarni qamrab oldi. Bu davr mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan aktsiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish, davlat ulushi mavjud aktsiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish borasida yangi davrni boshlab berdi. Iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi va xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda aktsiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish, muvofiqlashtirish bo'yicha mavjud huquqiy asoslar takomillashtirildi.

Qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish uchun me'yoriy-huquqiy asoslar yaratildi. Natijada 2012 yil 6 yanvarda O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi, 2014 yil 6 mayda Yangi tahrirdagi "Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunlari qabul qilindi. Mazkur qonunlar asosida 2014 yil 7 aprelda "O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4609-sonli Prezident farmoni hamda 2014 yil 2 iyulda Vazirlar Mahkamasining "Aktsiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 176-sonli qarori qabul qilindi.

7-bosqich fikrimizcha, 2015 yildan keyingi davrni o'z ichiga oladi. Bu bosqich O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida ta'kidlab o'tgan korporativ boshqaruv

tizimida mavjud kamchiliklarni ijobiy hal etishga qaratiladi. Istiqbolda mamlakatimizda tarmoq va soha miqyosida korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish mezonlari ishlab chiqiladi. Korporativ boshqaruvning xorijiy uslubiyotiga asoslangan tajribalari chuqur o'rganiladi. Ishlab chiqarish, tashqi iqtisodiy va investitsiya jarayonlariga zamonaviy xalqaro korporativ menejment standartlari tatbiq etiladi.

Yuqorida ta'kidlangan O'zbekistondagi korporativ boshqaruv amaliyoti bilan bog'liq kuzatishlar, izlanishlar, tahlillar, bayon etilgan fikr-mulohazalar va tadqiqot natijalariga asoslanib, respublikamizda korporativ boshqaruv amaliyoti bo'yicha etarli tajriba to'planganligini ta'kidlash mumkin. Jumladan, 2015 yilning 1 yanvar holatiga respublikamizda 1088 aktsiyadorlik jamiyati faoliyat yuritib, ular tomonidan jami 12,7 trln. so'mlik qimmatli qog'ozlar emissiya qilingan. 2014 yil yakunlari bo'yicha respublikamizda aktsiya va korporativ obligatsiyalar bozorining umumiy aylanmasi 2013 yilga nisbatan 35 foizga o'sib, 1,3 trln. so'mni tashkil etdi.

Mazkur yilda mamlakatimizda ikkilamchi bozordagi aholining (jismoniy shaxslar) ishtirokidagi bitimlar hajmi 50,6 mlrd. so'mni tashkil etib, jami aktsiya va korporativ obligatsiyalar bozorining 3,9 foizini tashkil etib, 2013 yilga nisbatan 1,4 martaga oshgan. Bu holat aholining oldingi yilga nisbatan fond bozoridagi ishtiroki, aktsiya va obligatsiyalarga nisbatan investitsiyali qiziqishning kuchayganidan dalolat beradi.

Ma'lumki, qimmatli qog'ozlar va fond bozori korporativ munosabatlarga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu sohadagi tahlillarga ko'ra, mamlakatimizda xususiylashtirish jarayonlarining boshlanganligiga 24 yil bo'lganligiga qaramay, mazkur sohada ayrim kamchiliklar ham mavjud. Lekin shunga qaramay, yuqoridagi raqamlar albatta mamlakatimizda korporativ boshqaruv amaliyotida olib borilgan islohotlar natijasi hisoblanadi.

O'zbekistonda korporativ boshqaruvni rivojlantirish borasidagi to'plangan tajribalarning samaradorligini oshirishda rivojlangan xorijiy amaliyotni puxta o'rganish katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, bu borada O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan quyidagilar alohida ta'kidlandi: "Eng avvalo, korporativ yoki aktsiyadorlik birlashmala-rimizning faoliyati samaradorligini tanqidiy baholash, ularni xorijiy davlatlardagi ana shunday korxonalar bilan taqqoslab ko'rish zarur. Chunki bugungi kunda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda, ayniqsa, sanoat sohasida mulkchilikning bunday shakli muhim o'rin tutadi"<sup>5</sup>.

Qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish uchun me'yoriy-huquqiy asosning yangi tahriri yaratildi. Natijada 2015 yil 3 iyunda yangi tahrirdagi "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonunlari qabul qilindi. Mazkur qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

aktsiya — o'z egasining aktsiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aktsiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo'lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan, egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'oz;

axborotni oshkor qilish — qimmatli qog'ozlar bozorida manfaatdor shaxslarning axborotni qaysi maqsadda olishidan qat'i nazar, mazkur axborotdan uning topilishi va olinishini kafolatlaydigan shakllarda foydalanishini ta'minlash;

veksel — veksel beruvchining yoxud vekselda ko'rsatilgan boshqa to'lovchining vekselda nazarda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga muayyan summani to'lashga doir qat'iy majburiyatini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz;

davlat qimmatli qog'ozlari — O'zbekiston Respublikasining g'azna majburiyatlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organ tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari;

depo hisobvarag'i — deponentning qimmatli qog'ozlarini saqlash va qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish uchun mo'ljallangan,

---

<sup>5</sup> Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T.: O'zbekiston, 2015. –32 B.



investitsiya vositachisining va Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysining hisobga olish registrlaridagi yozuvlar yig'indisi;

depo hisobvarag'idan ko'chirma — deponentning qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarini tasdiqlaydigan, investitsiya vositachisi va (yoki) Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi tomonidan beriladigan hujjat;

depozitar operatsiyalar — hisobga olish registrlarida depozitar operatsiyalar standartlariga muvofiq bajariladigan operatsiyalar;

depozitar tilxatlar — nominal qiymatga ega bo'lmagan qimmatli qog'oz bo'lib, u taqdim etiladigan qimmatli qog'ozlarning muayyan soniga bo'lgan mulk huquqini tasdiqlaydi va uning egasining ushbu qimmatli qog'oz emitentidan depozitar tilxat o'rniga taqdim etiladigan qimmatli qog'ozlarning tegishli sonini olishini hamda taqdim etiladigan qimmatli qog'ozlar bilan mustahkamlangan huquqlarning depozitar tilxat egasi tomonidan amalga oshirilishi bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatilishini talab qilish huquqini mustahkamlaydi;

depozit sertifikati — bankka qo'yilgan omonat summasini va omonatchining (sertifikat saqlovchining) omonat summasini hamda sertifikatda shartlashilgan foizlarni sertifikatni bergan bankdan yoki shu bankning istalgan filialidan belgilangan muddat tugaganidan keyin olish huquqini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz;

deponent — depo hisobvarag'iga ega bo'lgan shaxs;

investitsiya aktivlari — qimmatli qog'ozlar, pul mablag'lari va qonun hujjatlariga muvofiq investitsiya aktivlari deb e'tirof etiladigan boshqa mol-mulk;

investor — qimmatli qog'ozlarni o'z nomidan va o'z hisobidan oluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

infratuzilma obligatsiyalari — ishlab chiqarish infratuzilmasini va boshqa infratuzilmani barpo etish va (yoki) rekonstruktsiya qilishni moliyalashtirish uchun pul mablag'larini jalb etish maqsadida xo'jalik jamiyatlari va davlat korxonalari tomonidan chiqariladigan obligatsiyalar;

kliring — qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchilari tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar bo'yicha o'zaro

majburiyatlarni aniqlash, aniqlashtirish va hisobga olish;

korporativ obligatsiyalar — aktsiyadorlik jamiyatlari va o'zining tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar tijorat banklari tomonidan chiqariladigan obligatsiyalar;

market-meyker — qimmatli qog'ozlarga doir narxlar, talab va taklif darajasini saqlab turish uchun birja bitimlarini tuzish majburiyatini o'z zimmasiga olgan investitsiya vositachisi;

netting — mijozning barcha pul talablarini uning barcha pul majburiyatlariga nisbatan hisobga olish orqali amalga oshiriladigan kliring usuli;

noemissiyaviy qimmatli qog'ozlar — ushbu Qonunga muvofiq emissiyaviy qimmatli qog'ozlar tushunchasiga oid bo'lmagan qimmatli qog'ozlar;

obligatsiya — emissiyaviy qimmatli qog'oz bo'lib, u obligatsiyani saqlovchining obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa mulkiy ekvivalentini obligatsiyani chiqargan shaxsdan obligatsiyada nazarda tutilgan muddatda olishga, obligatsiyaning nominal qiymatidan qat'iy belgilangan foizni olishga bo'lgan huquqini yoxud boshqa mulkiy huquqlarini tasdiqlaydi;

opcion — emissiyaviy qimmatli qog'oz bo'lib, u o'z emitentining muayyan miqdordagi qimmatli qog'ozlarini unda nazarda tutilgan muddatda, qat'iy belgilangan narx bo'yicha sotib olishga bo'lgan huquqini tasdiqlaydi;

fond birjasi — ommaviy va oshkora birja savdolarini oldindan belgilangan joyda va belgilangan vaqtda o'rnatilgan qoidalar asosida tashkil etish hamda o'tkazish orqali faqat qimmatli qog'ozlar savdosi uchun sharoitlar yaratib beruvchi yuridik shaxs;

egasining nomi yozilgan qimmatli qog'ozlar — mulkiy huquqlarning realizatsiya qilinishi o'z egasining ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lishini talab etadigan qimmatli qog'ozlar;

emissiyaviy qimmatli qog'ozlar — bitta chiqarilish doirasida bir xil belgilar va rekvizitlarga ega bo'lgan, mazkur chiqarilish uchun yagona shartlar asosida joylashtiriladigan hamda muomalada bo'ladigan qimmatli qog'ozlar;

emitent — emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqaruvchi va ular yuzasidan

qimmatli qog'ozlarning egalari oldida majburiyatlari bo'lgan yuridik shaxs;

O'zbekiston Respublikasining g'azna majburiyatlari — emissiyaviy qimmatli qog'ozlar bo'lib, ular emissiyaviy qimmatli qog'ozlar egalari O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga pul mablag'lari kiritganligini tasdiqlaydi va bu qimmatli qog'ozlarga egalik qilishning butun muddati mobaynida qat'iy belgilangan daromad olish huquqini beradi;

qimmatli qog'ozlar — hujjatlar bo'lib, ular mazkur hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o'tkazish imkoniyatini nazarda tutadi;

qimmatli qog'ozlar bozori — yuridik va jismoniy shaxslarning qimmatli qog'ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi bilan bog'liq munosabatlari tizimi;

qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari — qimmatli qog'ozlarning emitentlari, qimmatli qog'ozlarning egalari, investorlar, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari, shuningdek birjalar va Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi;

qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi — qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs;

qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyat — qimmatli qog'ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatish bo'yicha litsenziyalanadigan faoliyat turi;

qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar — qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdisi, hadyasi, merosi, ustav fondiga kiritilishi va qimmatli qog'ozlar egasining almashuviga olib keladigan boshqa harakatlar, shuningdek qimmatli qog'ozlar garovi;

qimmatli qog'ozlarga doir fyuchers — qimmatli qog'oz bo'lib, u o'zida nazarda tutilgan muddatda qimmatli qog'ozlarning muayyan sonini qat'iy belgilangan narxda sotib olish yoki sotish majburiyatini tasdiqlaydi;

qimmatli qog'ozlarni joylashtirish — qimmatli qog'ozlarni ularning dastlabki egalariga berish;

qimmatli qog'ozlarning muomalasi — qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, qimmatli qog'ozlarning egasi almashuviga olib keladigan boshqa harakatlar;

qimmatli qog'ozlarni nominal saqllovchi — qimmatli qog'ozlar egasining yoki u vakil qilgan shaxsning topshirig'iga ko'ra qimmatli qog'ozlarni hisobga olishni va ularga bo'lgan huquqlarni tasdiqlashni qimmatli qog'ozlarning egasi bo'lmagan holda amalga oshiruvchi investitsiya vositachisi, Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi;

qimmatli qog'ozlarni chiqarish — yuridik shaxsning fuqarolik huquqlarining ob'ekti sifatida qimmatli qog'ozlar paydo bo'lishiga qaratilgan harakatlari;

qimmatli qog'ozlar egasi — qimmatli qog'ozlar o'ziga mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida tegishli bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

qimmatli qog'ozlar egalarining reestri — ro'yxatdan o'tkazilgan qimmatli qog'ozlar egalarining belgilangan sanadagi holatga ko'ra shakllantirilgan, ularga qarashli egasining nomi yozilgan qimmatli qog'ozlar emitentining nomi, ushbu qimmatli qog'ozlarning soni, nominal qiymati, turi va xili, shuningdek reestrda ro'yxatdan o'tkazilgan shaxslarga axborot yuborish imkoniyatini beradigan ma'lumotlar ko'rsatilgan ro'yxati;

qimmatli qog'ozlar emissiyasi — emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish va joylashtirish;

qimmatli qog'ozlarning emissiya risolasi — emitent va u chiqaradigan qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek investorning qimmatli qog'ozlar olish to'g'risidagi qaroriga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa axborotni aks ettiruvchi hujjat;

qimmatli qog'ozlarning hosilalari — o'z egalarining boshqa qimmatli qog'ozlarga nisbatan huquqlarini yoki majburiyatlarini tasdiqlovchi va yuridik shaxslar tomonidan opsiyonlar, qimmatli qog'ozlarga doir fyucherslar, depozitar

tilxatlar va boshqa moliyaviy vositalar tarzida chiqariladigan qimmatli qog'ozlar;

hisobga olish registrari — investitsiya vositachisida va Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysida qimmatli qog'ozlarni saqlash hamda qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish bo'yicha depozitar operatsiyalar standartlari bilan belgilangan yozuvlar tizimi.

2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi dunyodagi deyarli barcha mamlakatlarning iqtisodiyotiga keskin ta'sir ko'rsatdi. Chunki rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining jahon xo'jaligi va iqtisodiy-moliyaviy tizimiga integratsiyalashuvi jahon moliyaviy va iqtisodiy inqiroz yuz bergan sharoitda korporatsiyalarning samaradorligida salbiy oqibatlarni namoyon etdi. Bu esa investitsiyalarning ma'lum tarmoq va sohadan boshqa tarmoq va sohaga keskin ko'chib o'tish jarayonlarini tezlashtirdi. Ta'kidlash lozimki, jahonda yuz bergan bunday moliyaviy-iqtisodiy inqirozga qaramay, rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida hamon korporativ tuzilmalarning salmog'i yuqoriligicha qolmoqda.

Shuning uchun aktsiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish, korporativ boshqaruv tamoyillarini keng joriy etish, boshqaruv faoliyatiga xalqaro standartlarni tatbiq etish uchun, avvalo, korporativ boshqaruv mexanizmining zamonaviy amaliyotini o'rganish lozim. Buning uchun, mamlakatimiz olimlari, mutaxassis va tadqiqotchilari korporativ boshqaruv bo'yicha katta tajribaga ega davlatlar ilg'or tajribasini o'rganish, tahlil qilish va ulardan milliy iqtisodiyotimiz shartsharoitlariga muvofiq tarzda foydalanish imkoniyatlarini asoslashlari zarur.

## **1.2. Qimmatli qog'ozlar auditining maqsadi, vazifalari va me'yoriy – huquqiy asoslari**

Milliy iqtisodiyotimizda xo'jalik yuritishni bozor usullariga o'tkazish jarayonida qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish va mukammal faoliyat olib borishini ta'minlash muammosi, qimmatli qog'ozlar bozori sub'ektlarining muhim xususiyatlarini va ma'lum bir sohadagi o'ziga xos qiziqishlarini aniqlash juda dolzarb masala bo'lib turibdi.

Mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlanish xususiyatlari shundan iboratki: birinchidan u bozor iqtisodiyotiga asoslangan qonunlar asosida shakllanmoqda; ikkinchi tomondan esa O'zbekistonda mavjud o'ziga xoslikni ifodalaydi.

Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida har bir korxonadan investitsion faollikni, investitsiya jarayonlarining faol ishtirokchisi bo'lishni taqozo qiladi. Xo'jalik sub'ektlarining investitsion jarayonlarda qatnashuvi ularning boshqa yuridik va jismoniy shaxslar, qolaversa, xorijiy kompaniyalar bilan aloqasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning investitsion faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yishda, avvalo, qimmatli qog'ozlar auditiga muhim e'tibor qaratish lozim.


Investitsion faoliyatning qanchalik to'g'ri amalga oshirilganligi, shuningdek, investitsiyalarni baholash, loyihalarga mablag' ajratish hamda moliyaviy natijani aniqlash amaldagi huquqiy hujjatlarga muvofiq yuritilganligini tekshirish g'oyat katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mulkchilikning turli shaklidagi korxonalarda moliyaviy investitsiyalarning buxgalteriya hisobi bo'yicha muomalalar yagona (umumiy) tamoyillar asosida amalga oshirilishi lozim. Qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan moliyaviy investitsiyalarning hisobi qimmatli qog'ozlarning qoplanish muddati, ularning turi (iqtisodiy mazmuni), hisob-kitob shakllari, qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun manba va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tilgan vazifalarga erishishda qimmatli qog'ozlar auditini to'g'ri yo'lga qo'yish lozim bo'ladi. Agarda respublikamizda auditorlik faoliyati o'tgan asrning 90-yillaridan so'ng vujudga kelganligini inobatga oladigan bo'lsak, qimmatli qog'ozlar audit borasida talaygina muammolar mavjudligi ko'zga tashlanadi.

Ma'lumki, auditning har bir ob'ekti ustidan nazoratni tashkil qilishda auditning standartlariga keng ahamiyat qaratiladi. Qimmatli qog'ozlar auditini o'tkazishda ham auditning milliy standartlarini amaliyotga keng tatbiq qilish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi

tomonidan tasdiqlangan auditning milliy standartlari qimmatli qog'ozlar auditini o'tkazishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Quyidagi chizmada qimmatli qog'ozlar auditida qo'llaniladigan auditning milliy standartlari tasnifi keltirilgan (1-chizma).



**1-chizma. Qimmatli qog'ozlar auditida qo'llaniladigan auditorlik faoliyatining milliy standartlari<sup>6</sup>.**

<sup>6</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Hozirgi kunda yuqorida keltirib o'tilgan auditning milliy standartlari amaliyotda to'la-to'kis qo'llanilmayapti. Bu esa investitsiyalar auditini o'tkazishda ham talaygina kamchiliklarni ro'yobga chiqarmoqda. Bundan tashqari, milliy audit standartlarining xalqaro audit standartlariga nisbatan ancha kamchiliklarga ega ekanligi ko'zga tashlanmoqda.

Umuman olganda, respublikamizda audit tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish davr talabi ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, hali ko'pgina ishlar bajarilishi taqozo etiladi.

Bizning fikrimizcha, qimmatli qog'ozlar auditining o'tkazishda asosiy e'tibor auditorlik tanlashni to'g'ri belgilash, auditorlik tavakkalchiligi va muhimlik darajasini to'g'ri aniqlash hamda dalillarni yig'ishni muayyan tizimga solishga qaratilishi lozim.

Qimmatli qog'ozlar auditining maqsadi barcha muhim aspektlar bo'yicha moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi to'g'risida fikrni shakllantirish uchun tashkilotda qo'llanilayotgan buxgalteriya hisobi uslublarini tekshirilayotgan davrda amalda bo'lgan me'yoriy hujjatlarga mos kelishini aniqlash hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlar auditini o'tkazishda muayyan ijobiy natijalarga erishish maqsadida auditning vazifalari belgilab olinishi zarur. Bizning fikrimizcha, qimmatli qog'ozlar auditining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

- boshlang'ich hujjatlar va hisobga olish registrlari ma'lumotlari bo'yicha qimmatli qog'ozlar tarkibini, ularga mulk egaligi huquqini tasdiqlanishini o'rganish;
- qimmatli qog'ozlarning sintetik va analitik hisobni holatini baholash;
- qimmatli qog'ozlarning ichki nazorat va buxgalteriya hisobi tizimini boshlang'ich baholashni tasdiqlash;
- qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida o'z vaqtida va to'liq aks ettirilishini tekshirish;
- qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha daromadlarni



hisoblanishini, kelib tushishini va buxgalteriya hisobida aks ettrilishini ishonchliligini tasdiqlash;

- qimmatli qog'ozlar inventarizatsiyasini o'z vaqtida o'tkazish, ularni natijalarini aniqlash va buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish.

Qimmatli qog'ozlar auditini o'tkazishda yuqorida keltirib o'tilgan muammolarni chuqur o'rgangan holda belgilangan vazifalarni o'z vaqtida hamda to'g'ri amalga oshirish, shubhasiz, bu boradagi ishlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Qimmatli qog'ozlar auditini o'tkazish jarayonida «Buxgalteriya hisobi to'g'risida», «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida» va «Auditorlik faoliyati to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari, 12-son «Moliyaviy investitsiyalar hisobi» nomli BHMS va auditorlik faoliyatining milliy standartlariga rioya qilish lozimdir.

Qimmatli qog'ozlar auditini o'tkazganda uchraydigan asosiy atamalarni «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga asoslanib aniqlab olamiz.

Investitsiyalar bugungi kunda auditorlik tekshiruvining diqqat markazida turadi. Xuddi buxgalteriya hisobida bo'lganidek, auditorlik tekshiruvida ham investitsiyalarni ikki guruhga: moliyaviy investitsiyalar hamda kapital qo'yilmalar (investitsion loyihalar)ga bo'lingan holda tekshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Moliyaviy investitsiyalarning auditorlik tekshiruvi buxgalteriya hisobotining «Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar» va «Qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar» moddalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan me'yoriy hujjatlar hamda hisob uslubiyati va soliq solish amaliyotiga muvofiq olib borilganligiga ishonch hosil qilish uchun o'tkaziladi.

Boshqa aktivlarning tekshiruvi kabi, auditorlik tekshiruvi ham quyidagilardan kelib chiqadi:

1. To'liqlik, ya'ni hamma qimmatli qog'ozlar buxgalteriya hisobi va hisobotida aks etgan, hisobga olinmagan moliyaviy qo'yilmalar mavjud emasligi;

- hisobvaraqlar bo'yicha qoldiq va aylanmalar to'lig'icha buxgalteriya hisobi registrilaridan bosh kitob va buxgalteriya hisobotiga o'tkazilganligi;

- buxgalteriya hisobi va hisobotida qimmatli qog'ozlarning kelib tushishi va hisobdan chiqarilishi to'liq aks etganligi;

2. Mavjudlik, ya'ni hamma qimmatli qog'ozlartashkilot uchun balans tuzilgan sanada mavjud bo'lgani va kelajakda foyda keltirishi;

- qimmatli qog'ozlarlar mavjudligi kerakli boshlang'ich hujjatlar va belgilangan tartibda o'tkazilgan inventarizatsiya natijalari bilan tasdiqlanganligi;

3. Huquq va burchlari, ya'ni tashkilot shu qimmatli qog'ozlarga huquqli va shu huquq bilan bog'liq xavf-xatarlarga javobgarligi;

- buxgalteriya hisobotida ko'rsatilgan qimmatli qog'ozlarlar tashkilotga qonun asosida tegishliligi;

- buxgalteriya hisobi hisobvaraqlaridagi hamma yozuvlar amaldagi qonunchilik va me'yoriy hujjatlarga muvofiq tuzilgan hamda belgilangan hujjatlar bilan tasdiqlanganligi;

4. Baholash, ya'ni qimmatli qog'ozlarni buxgalteriya hisobi va hisobotida me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq baholanganligi;

- chet el valyutasidagi qimmatli qog'ozlarning so'mdagi bahosi amaldagi qonunchilikka muvofiq belgilanganligi;

- qimmatli qog'ozlarni sotishdan tushgan mablag' buxgalteriya hisobida boshlang'ich hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarga mos ravishda aks ettirilishi;

5. Aniqlik, ya'ni qimmatli qog'ozlar bo'yicha xarajatlar buxgalteriya hisobi qoidalariga muvofiq hisobga olingan buxgalteriya hisoboti ko'rsatkichlari hisob registridagi yozuvlarga mos kelishi;

- boshlang'ich hujjatlarda, buxgalteriya hisobi registrilarida ma'lumotlarni buxgalteriya hisobotiga ko'chirish vaqtida ko'rsatkichlarning arifmetik aniqligi saqlanishi;

- chet el valyutasida ko'rsatilgan qimmatli qog'ozlarning so'mdagi qiymatini belgilashda operatsiya amalga oshirilgan kundagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursidan foydalanilishi;

- buxgalteriya hisobotida aniq ma'lumotlar asosida aniqlangan moliyaviy natija ko'rsatilganligi;

6. Hisob davrining chegaralanganligi, ya'ni qimmatli qog'ozlarni hisobga olish va hisobdan chiqarish bo'yicha hamma operatsiyalar tegishli hisob davrida hisobga olinganligi;

7. Taqdim qilish va ochib berish, ya'ni hamma qimmatli qog'ozlarlar muddatlari va turlari bo'yicha to'g'ri ajratilganligi va buxgalteriya hisobotida to'g'ri ochib berilishi. Qimmatli qog'ozlarni sotish va qoplash bilan bog'liq foyda va zararlar haqidagi hisobotda to'g'ri ajratib berilganligi. Qimmatli qog'ozlarlar haqidagi ma'lumot buxgalteriya hisobotidagi tushuntirishlarda ochib berilishi.

Qimmatli qog'ozlarni tekshirishda auditor foydalaniladigan ma'lumotlar bazasi bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- Qimmatli qog'ozlar hisobini tartibga soluvchi barcha me'yoriy hujjatlar;
- Moliyaviy hisobot;
- tashkilotning hisob siyosati;
- hisob registrlari;
- qimmatli qog'ozlarni qayd etuvchi hujjatlarni o'z ichiga oladi.

Korxona hisob siyosatidan auditor quyidagilar bilan tanishishi mumkin:

- tashkilotdagi hisob shakli hamda korxona buxgalteriyasi tomonidan tuziladigan hisob registrlari ro'yxati;

- qimmatli qog'ozlar hisobi bilan bog'liq birlamchi hujjatlarning aylanishi;
- korxonada qimmatli qog'ozlarni baholash xususiyatlari;
- tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan qimmatli qog'ozlar hisobi uchun birlamchi hujjatlar shakli va boshqalar.

Yagona jurnal-order hisob shaklidan foydalaniladigan tashkilotlarda hisobga olingan birlamchi hujjatlarda bor bo'lgan, o'zida operatsiyalarni aks ettirgan va ma'lumotlar to'planadigan jurnal-orderlar ishlatiladi. Tashkilot tomonidan tuzilgan registrlar ro'yxati hisob siyosati haqidagi buyruq bilan tasdiqlanadi.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, hozirgi kunda milliy

auditorlik tashkilotlarida qimmatli qog'ozlar auditini o'tkazish muayyan kamchiliklarga ega. Qimmatli qog'ozlar auditini o'tkazishda eng katta muammo auditorlik tekshiruvi jarayonida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan qabul qilingan milliy audit standartlarining keng qo'llanilmayotganligidadir. Bundan tashqari qimmatli qog'ozlar auditini takomillashtirishda xalqaro standartlardan foydalanish imkoniyati mavjud. Bizning fikrimizcha, qimmatli qog'ozlar auditini yangi bosqichga olib chiqishda, avvalambor, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

### **I bob bo'yicha xulosa**

Dissertatsiyaning 1-bobida iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qimmatli qog'ozlar audtining nazariy asoslari yoritib berilgan. Mazkur bobda korporativ boshqaruv sharoitida qimmatli qog'ozlarning o'rni va ahamiyati, qimmatli qog'ozlar auditining maqsadi, vazifalari hamda me'ri-xuquqiy asoslari yoritib berilgan.

Jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan yangi texnologiyalarning rivojlanishi, tovarlar, xizmatlar va ishchi kuchi bozoridagi raqobatning kuchayishi har bir xo'jalik sub'ektidan ishlab chiqarishni tarkiban yangilash, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish uchun dunyo amaliyotida o'zini oqlagan boshqaruv usullarini o'z faoliyatiga qo'llashni taqozo etmoqda. Bu esa aholining tez o'sib, o'zgarib borayotgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish, zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish, raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish va tovarlar hayotiylik davrining barqaror o'sib borishini ta'minlash, tejamkor texnologiyalarni qo'llash, investitsiya muhitini yaratish hamda zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalanishni dolzarb masalaga aylantirdi.


## **II BOB. IQTISODIYOTNI DIVERSIFIKATSIYALASH SHAROITIDA QIMMATLI QOG'OZLAR AUDITINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH**

### **2.1. Qimmatli qog'ozlar auditini rejalashtirish**

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalar to'g'ri hisoblanishga erishishning muhim vositasi uni auditorlik tekshiruvidan o'tkazib turish hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlar auditini o'tkazish auditorlik rejalashtirishidan boshlanadi. Qimmatli qog'ozlar auditini rejalashtirish audit o'tkazishning boshlang'ich bosqichi hisoblanib, audit o'tkazishning kutilayotgan hajmi, jadvallari va muddatlarini ko'rsatgan holda auditorlik tashkiloti tomonidan auditning umumiy rejasi ishlab chiqiladi. Shuningdek, auditorlik tashkiloti tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisoboti to'g'risida xolis va asosli fikrlarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan auditorlik rusum-qoidalarini amalga oshirish hajmi, turlari va izchilligini belgilaydigan auditorlik dasturi tuziladi.

Fikrimizcha, qimmatli qog'ozlar auditini rejalashtirish auditni o'tkazishning quyidagi umumiy qoidalariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.



**2-chizma. Qimmatli qog'ozlar auditini rejalashtirish tamoyillari<sup>7</sup>.**


<sup>7</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Qimmatli qog'ozlar auditini rejalashtirishning kompleksligi qoidasi birlamchi rejalashtirishdan boshlab auditning umumiy rejasi va dasturini tuzishga qadar rejalashtirishning barcha bosqichlarini o'zaro bog'liqligini ta'minlanishini taqozo etadi.

Qimmatli qog'ozlar auditi uzoq muddatga rejalashtirilganda ya'ni korxonaning auditorlik tekshiruvi bir yil davomida amalga oshirilsa, auditorlik tashkiloti korxonaning moliya-xo'jalik faoliyatidagi o'zgarishlarni va oraliq auditorlik tekshiruvlari natijalarini hisobga olgan holda auditni o'tkazish reja va dasturlariga o'z vaqtida tuzatishlar kiritishi kerak bo'ladi.

Qimmatli qog'ozlar auditini rejalashtirishning maqbulligi qoidasi shundan iboratki, rejalashtirish jarayonida auditorlik tashkiloti o'zi belgilagan mezonlar asosida audit umumiy rejasi va dasturining maqbul variantini tanlash imkoniyatini ta'minlashi kerak.

Qimmatli qog'ozlar auditini rejalashtirish paytida auditorlik tashkiloti quyidagi asosiy bosqichlarni ajratishi kerak:



### **3-chizma. Qimmatli qog'ozlar auditini rejalashtirish bosqichlari<sup>8</sup>.**

Qimmatli qog'ozlar auditini samarali rejalashtirish uchun auditorlik tashkiloti korxona rahbariyati bilan auditni o'tkazishga oid asosiy tashkiliy masalalarni kelishib olishi kerak.

<sup>8</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Dastlabki rejalashtirish bosqichida auditor korxonaning moliya-xo'jalik faoliyati bilan tanishishi va quyidagilar to'g'risida axborotga ega bo'lishi shart:

- korxonaning xo'jalik faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy vaziyat va uning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradigan tashqi omillar;

- korxonaning xo'jalik faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan, uning alohida xususiyatlari bilan bog'liq ichki omillar.

Auditor quyidagilar bilan ham tanishishi kerak:

- a) korxonaning tashkiliy-boshqaruv tuzilishi;

- v) kapital tarkibi va aktsiyalar kursi (korxona aktsiyalari kotirovkalanishi kerak bo'lgan holda);

- d) rentabellik darajasi;

- e) korxonaning asosiy xaridorlari va ta'minotchilari;

- j) korxona tasarrufida qoladigan foydani taqsimlash tartibi;

- z) sho'ba va tobe korxonalarning mavjudligi;

- i) korxona tomonidan tashkil etilgan ichki nazorat tizimi.

Auditor uchun quyidagilar korxona ustav kapitali to'g'risida axborot olish uchun manba hisoblanishi lozim:

- korxona ustavi;

- korxonani ro'yxatga olish to'g'risidagi hujjatlar;

- kuzatuv va ijroiya organlari, aktsiyadorlar yig'ilishning yoki korxonaning boshqaruv organi majlisi bayonnomalari;

- korxona hisob siyosati va unga o'zgartirishlar kiritishni tartibga soluvchi hujjatlar;

- moliyaviy hisobot shakllari;

- statistika hisobotlari;

- auditor maslahatchilarining ichki hisobotlari.

Qimmatli qog'ozlar auditini dastlabki rejalashtirish bosqichida auditorlik tashkiloti auditni o'tkazish imkoniyatini baholaydi. Agar auditorlik tashkiloti auditni o'tkazishni mumkin deb hisoblasa, u auditorlik tekshiruvini olib borish uchun shtatni shakllantirishga o'tadi.

Auditorlar guruhiga kiradigan mutaxassislar tarkibini rejalashtirish paytida auditorlik tashkiloti quyidagilarni hisobga olishi shart:

- auditning har bir bosqichi: tayyorgarlik, asosiy va yakunlash bosqichi, ish vaqti byudjeti;

- guruh ishining taxmin qilinayotgan muddatlari;

- guruhning miqdoriy tarkibi;

- guruh a'zolarining mansab darajasi;

- guruh xodimlarining vorisligi;

- guruh a'zolarining malaka darajasi.

Qimmatli qog'ozlar auditi rejasi va dasturini tayyorlash jarayonida auditorlik tashkiloti korxonada amal qilayotgan ichki nazorat tizimining samaradorligini baholaydi va ichki nazorat tizimi xatarini (nazorat xatarini) baholashni amalga oshiradi. Agar ichki nazorat tizimi korxona rahbarini noto'g'ri axborotlar mavjudligi to'g'risida o'z vaqtida ogohlantirsa, shuningdek, noto'g'ri axborotni aniqlasa, uni samarador deb hisoblash mumkin. Ichki nazorat tizimining samaradorligini baholarkan, auditorlik tashkiloti auditorlik isbot-dalillarini etarli miqdorini to'plashi shart. Agar auditorlik tashkiloti moliyaviy hisobotning ishonchliligi to'g'risida etarli darajada ishonch hosil qilish uchun ichki nazorat tizimiga va buxgalteriya hisobi tizimiga asoslanishga qaror qilsa, u kelgusi audit hajmini tegishli tarzda tuzatishi kerak bo'ladi.

Qimmatli qog'ozlar auditi rejasi va dasturini tayyorlash paytida auditorlik tashkiloti moliyaviy hisobotni ishonchli deb hisoblash imkonini beradigan jiddiylik va auditorlik xatarini maqbul darajasini belgilashi kerak.

Qimmatli qog'ozlar auditi xatarini rejalashtirishda auditorlik tashkiloti, korxona auditidan qat'i-nazar, bu hisobotga xos bo'lgan moliyaviy hisobotning ajralmas xatari va nazorat xatarini belgilaydi. Belgilangan xatarlar va jiddiylik darajasi yordamida auditorlik tashkiloti audit uchun ahamiyatli sohalarni aniqlaydi va zarur auditorlik rusum-qoidalarini rejalashtiradi.

Qimmatli qog'ozlar auditini rejalashtirish paytida belgilangan auditorlik xatari va jiddiylik darajasining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadigan holatlar yuzaga



kelishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlar auditi rejasi va dasturini tuzishda auditorlik tashkiloti hisob axborotiga ishlov berish darajasini inobatga olishi kerak, bu ham auditorlik tashkilotiga auditorlik rusum-qoidalarining hajmi va tusini aniqroq belgilash imkonini beradi.

Auditorlik tashkiloti bajarayotgan rusum-qoidalarining natijalarini audit umumiy reja va dasturini tayyorlash paytida batafsil hujjatlashtirish kerak, chunki mazkur natijalar qimmatli qog'ozlar auditini rejalashtirish uchun asos hisoblanadi va butun audit jarayoni davomida ishlatilishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlar auditi jarayonida auditorlik tashkilotida umumiy rejaning ayrim qoidalarini qayta ko'rish uchun asoslar paydo bo'lishi mumkin. Rejaga kiritilayotgan o'zgartirishlarni, shuningdek, o'zgartirish sabablarini auditor batafsil hujjatlashtirishi lozim.

Qimmatli qog'ozlar auditi rejasida auditorlik tashkiloti auditni o'tkazish muddatlarini, auditorlik xulosasini tuzish tartibini nazarda tutishi shart. Fikrimizcha, vaqt sarfini rejalashtirish jarayonida auditor quyidagilarni hisobga olishi kerak:

1. Haqiqiy xarajatlar;
2. Bundan oldingi davrda (takroriy audit o'tkazilgan taqdirda) vaqt sarfi va uning joriy hisob-kitob bilan aloqasi;
3. Jiddiylik darajasi;
4. Auditorlik xatarlarining amalga oshirilgan baholari.

Umumiy rejada auditorlik tashkiloti dastlabki tahlil natijalari asosida qimmatli qog'ozlar auditini o'tkazish usulini belgilaydi, ichki nazorat tizimining ishonchliligini, audit xatarlarini baholaydi. Tanlab audit o'tkazishga qaror qilingan taqdirda auditor auditorlik tanlamasini "Auditorlik tanlamasi" audit standartiga muvofiq shakllantiradi.

Qimmatli qog'ozlar auditi sifatini nazorat qilishni rejalashtirishga doir qoidalar umumiy rejaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlar auditi rejasida quyidagilar nazarda tutilishi tavsiya qilinadi:

1. Auditni o'tkazishga jalb etiladigan auditorlar soni va malakaviy darajasini belgilash;

2. Auditorlarni kasbiy xislatlari va mansab darajalariga muvofiq aniq audit ob'ektlari bo'yicha taqsimlash;

3. Tashkilotning barcha a'zolariga ularning vazifalari xususida yo'l-yo'riqlar berish, ularni korxonaning moliya-xo'jalik faoliyati, shuningdek, asosiy kapitalga investitsiyalar auditining umumiy rejasi qoidalarini bilan tanishtirish;

4. Rahbarning reja bajarilishi va auditor assistentlari ishining sifati, ular tomonidan ish hujjatlari yuritilishi va audit natijalarini tartib bo'yicha rasmiylashtirilishini nazorat qilishi;

5. Auditorlik guruhi rahbarining auditorlik rusum-qoidalarini amalga oshirish bilan bog'liq uslubiy masalalarini tushuntirishi;

6. Muayyan dalillarni baholashda auditorlik guruhi rahbari bilan uning a'zolari o'rtasida kamchiliklar paydo bo'lganda auditorlik guruhi a'zosini fikrini hujjatli rasmiylashtirish.

Audit dasturi qimmatli qog'ozlar auditining rejasini rivojlantirishga imkoniyat beradi va uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan auditorlik rusum-qoidalarini mazmunining batafsil ro'yxatini o'z ichiga oladi. Dastur auditor assistentlari uchun muhim yo'riqnoma bo'lib xizmat qiladi va bir vaqtning o'zida auditorlik guruhining rahbari uchun ish sifatini nazorat qilish vositasi hisoblanadi.

Auditor qimmatli qog'ozlar auditini dasturini hujjatli rasmiylashtirishi, har bir bajariladigan auditorlik rusum-qoidasini raqam yoki kod bilan belgilashi lozim.

Auditorlik dasturini nazorat vositalari test ko'rinishida va mohiyatiga ko'ra auditorlik rusum-qoidalarini dasturi ko'rinishida bo'lishi maqsadga muvofiq.

Qimmatli qog'ozlar auditini o'tkazish shartlari va auditorlik rusum-qoidalarini natijalarining o'zgarishiga bog'liq holda audit dasturi qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Bunda o'zgarishlarning sabablari va natijalari hujjatlashtirilishi kerak.

Auditorlik dasturining har bir bo'limi bo'yicha auditorning ish hujjatlarida rasman aks ettirilgan xulosalari auditorlik hisoboti (korxona rahbariyatiga yozma axborot) va auditorlik xulosasini tuzish uchun dalil, shuningdek, korxonaning

moliyaviy hisoboti to'g'risida auditorning xolis fikrini shakllantirish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Uzoq muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schyotlar (0600) va qisqa muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schyotlar (5800) bo'yicha analitik hisobi moliyaviy investitsiyalarning turlari va ob'ektlari bo'yicha yuritiladi. Auditor ishchi schyotlar rejasi bo'yicha moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish uchun tashkilot tomonidan foydalanayotgan schyotlar ro'yxati bilan tanishib chiqadi, analitik hisobi tuzilmasi qimmatli qog'ozlar sotuvchi tashkilotlar, qarz oluvchi tashkilotlar bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi hududida va chet mamlakatlarda ob'ektlarga qo'yilmalar haqida moliyaviy investitsiyalar to'g'risida axborotlar olishni ta'minlashini baholaydi.

## **2.2. Qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalarning to'g'riligini tekshirishda auditorlik amallarini qo'llashning o'zi xos jihatlari**

Qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalarning to'g'riligini tekshirishda auditorlar auditorlik amallarini bajarish chog'ida dalillovchi ma'lumotlarni to'playdilar. Auditorlik amali bu muayyan audit uchastkasida dalillarni olish uchun auditor tomonidan amalga oshiriladigan ishlarning ma'lum tartibi va ketma-ketligidir. Dalillarni to'plash uchun qanday auditorlik amallari zarurligi va ularni qachon bajarishni auditor auditorlik tekshirishlar dasturini tuzish chog'ida mustaqil hal qiladi. O'zbekiston Respublikasining auditorlik faoliyati milliy standartlariga muvofiq auditor quyidagilarga asosan etarli dalillarni to'plashi lozim: ichki nazorat vositalarini tekshirish; schyotlar bo'yicha qoldiqlar va oborotlarni buxgalteriya hisobida aks ettirishning to'g'riligini tekshirish; tahliliy amallar.

Ichki nazorat vositalarini muvofiqlik uchun tekshirish auditorlarga

ichki nazorat tizimida ko'zda tutilgan tadbirlar va amallarning samaradorligi (samarasizligi) to'g'risida dalillar to'plashiga imkon beradi.

Schyotlar bo'yicha qoldiqlar va oborotlarning buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirilishini batafsil tekshirish muayyan muomalalarning mazmunini va

xatolarini aniqlash uchun o'rganishni nazarda tutadi. Batafsil tekshirish odatda auditor tomonidan tekshiruv maqsadini, tanlashning rejalashtirilgan ko'lamini va uning ob'ektlarini saralab olishni hisobga olgan holda tanlov to'plamini shakllantirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Yana bir auditorlik amallarining muhim kategoriyasi tahliliy amallar hisoblanadi. Tahliliy amallar auditorlik dalillarni to'plash chog'ida bir necha vazifalarni bajarishda xizmat qiladi. Tahliliy amallarning turi ularni o'tkazish maqsadi, ularni o'tkazish uchun zarur bulgan axborotga erishish imkoniyati va unga moslikka, xujalik yurituvchi sub'ektning faoliyat turiga bog'liq bo'ladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy xisoboti fakt kursatkichlarini u tomonidan belgilangan reja bilan solishtirishda auditorlik tashkiloti:

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan ko'llaniladigan rejalashtirish uslubiyatini baxolashi;

Reja ko'rsatkichlariga binoan xisobot davri moliyaviy kursatkichlari mijoz tomonidan o'zgartirilmaganligiga ishonch xosil kilishi kerak. Shuni qo'shimcha qilish maqsadga muvofiqki, AFMS.ga ko'ra: "Auditor tomonidan, boshka manbalardan olingan dalillar bilan tasdiklanmaydigan g'ayrioddiy tafovutlarning aniklanishi xolatlarida, u o'tkazilgan taxliliy tadbirlarning ob'ektivligi va ishonchliligiga shaxsan ishonch xosil kilish uchun ularni mufassal tadbik etishi lozim".<sup>9</sup>

Moliyaviy xisobotning fakt kursatkichlarini mustakil belgilangan prognoz kursatkichlar bilan solishtirishda auditorlik tashkiloti Uz taxminlarini shakllangan tamoyillar asosida belgilaydi.

Xisobot va me'yoriy ko'rsatkichlar negizida xar xil turdagi koeffitsientlar va foizli nisbatlar xisob-kitobi samarali xisoblanadi. Koeffinientlarni tanlash, ularning xisob-kitoblari usullarini va xisob-kitob vakti davrlarini tanlash me'yoriy xujjatlarga muvofik ravishda amalga oshiriladi. Extimoliy tavakkalchiliklar soxalarini aniklash usullari:

---

<sup>9</sup> №13 Tahliliy amallar nomli A.F.M.S. // <http://www.naaa.freenet.uz> internet sayti

joriy davr nisbiy kursatkichlarining taxlili;

turli davrlarda xujalik yurituvchi sub'ekt uchun xisoblab ko'yilgan nisbiy kursatkichlar o'zgarishining taxlili;

nisbiy kursatkichlar bir necha turining o'zgarishlarini solishtirish.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy xisoboti fakt ko'rsatkichlarini tarmoqning o'rtacha kursatkichlari bilan solishtirganda, auditor shu xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatini taxlil qiladi. Bunda auditor shularni xisobga olishi kerakki, tarmok ko'rsatkichlari mazkur xujalik yurituvchi sub'ekt kursatkichlari bilan mutanosib bulmasligi mumkin, shuningdek xujalik yurituvchi sub'ektlar turli xisob siyosatidan foydalanishi xam mumkin.

Auditor tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy xisoboti ma'lumotlarini moliyaviy xisobot tarkibiga kirmaydigan ma'lumotlar (nobuxgalterlik ma'lumotlari) bilan solishtirish usuli kullangan takdirda, auditor foydalanilayotgan nobuxgalterlik ma'lumotlarining anikligiga ishonch xosil qilishi lozim.

Xisobotning fakt ko'rsatkichlarini avvalgi davrlar ma'lumotlari bilan solishtirish jarayonida auditorlik tashkiloti auditni rejalashtirish boskichidayok extimolli tavakkalchiliklar soxalarini belgilab oladi. Extimolli tavakkalchiliklar soxalarini aniklashning keng tarkalgan usullari quyidagilardir:

Buxgalteriya balansi moddalarini solishtirish va ulardagi jiddiy o'zgarishlar taxlili;

Moddalardagi o'zgarishlarni boshqa moddalardan o'zgarishlar bilan solishtirganda o'zgarishlarni taxlil qilish. Mazkur xolda extimolli tavakkalchilik soxasi, bir ko'rsatkichdagi o'zgarish iktisodiy tabiatiga ko'ra boshqa ko'rsatkichdagi o'zgarishga muvofiq kelmaganida aniklanadi.

Auditorlik tashkilotlari va auditorlar auditorlik dalillarni to'plash jarayonida xar doim xam aytib o'tilgan jixatlarga rioya qilinayotgani yo'q. Bu esa auditorlarning oldiga yanada muxim vazifalarni yuklaydi. Bundan tashqari auditor tomonidan, boshqa manbalardan olingan dalillar bilan tasdiqlanmaydigan g'ayrioddiy tafovutlarning aniklanishi xolatlarida, u o'tkazilgan taxliliy

tadbirlarning ob'ektivligi va ishonchliligiga shaxsan ishonch xosil qilish uchun ularni mufassal tadqiq etishi lozim.

Tadqiq jarayoni xujalik yurituvchi sub'ekt raxbariyatini so'rov qilishdan boshlanishi kerak. Javoblar auditorlik dalillari bilan yoki auditorning xujalik yurituvchi sub'ekt faoliyati to'g'risidagi bilimi bilan tasdiqlanishi lozim. Auditor, shuningdek, raxbariyat so'rovi natijalariga asoslangan boshqa auditorlik tadbirlarini o'tkazish imkoniyatlarini ko'rib chikishi lozim.

Keltirib o'tilgan faktlarga asoslanib bir tomondan tahliliy amallar mijoz korxonaning muhim moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlarini, kutilmagan va buxgalteriya hisobida noto'g'ri aks ettirilgan xo'jalik muomalalarini aniqlash, shuningdek bunday xatolar va chalkashliklarning sabablarini aniqlashni ko'zda tutadi va ikkinchi tomondan Auditning Xalqaro Standartlariga asoslangan xolda "tahliliy amallar-bu muxim koeffitsientlar va yo'nalishlarni, jumladan bundan kelib chiqadigan boshqa tegishli ma'lumotga izchil bo'lmagan yoki istiqbolli belgilangan summalardan farqlanadigan chetga chiqishlar va o'zaro bog'liqliklarni taxlil qilish"<sup>10</sup> degan umumiy xulosaga kelish mumkin. Xar ikki tomondan qarashlarni xam o'zaro bog'liqlik birlashtirib turadi. Auditorlik dalillarni olish maqsadida bajariladigan amallardan muxim ahamiyat kasb etuvchi tahliliy amallar borasida ilmiy-amaliy qarashlarimizni keltirib o'tdik. Shuni ta'kidlab o'tish joizki bundan tashqari bir nechta amallar xam bajariladi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin: tekshirish, kuzatish, so'rovnoma o'tkazish va tasdiqlash va hisob-kitoblar.

To'plangan auditorlik dalillari buxgalteriya hisobining yo'lga qo'yilishini va ichki nazorat tizimini o'rganish hamda baholash to'g'risidagi yozuvlar, bayonnomalar, jadvallar va blankalar shaklida auditorning ishchi hujjatlarida aks ettirilishi lozim. Ishchi hujjatlarda auditorlik amallarining rejalashtirilishi va bajarilish natijalarini ham aks ettirish zarur. Auditorlik dalillarini to'plash ketma-ketligini quyidagicha:

---

<sup>10</sup> № 500 – «Auditorlik dalillar» (Audit Evidence) A.X.S.// O'zbekiston Buxgalterlar va Auditorlar Assotsiatsiyasining Nashriyot-ma'lumot Markazi, T:-2006 yil. 89 bet

1. Auditorlik dalillarini to'plashning maqsadini shakllantirish shartnomaning umumiy audit rejasi va auditorlik tekshiruvlar dasturiga taalluqli maqsadiga bog'liq. Shartnomadan kelib chiqqan holda boshqa maqsadlar ham, jumladan hisobni tashkil etishning samaradorligini baholash, to'lov layoqatini, rentabellikni va boshqalarni bashoratlash ham aniqlanishi mumkin.

2. Tanlangan auditorlik amallari №3-«Auditni rejalashtirish» nomli AFMS ga muvofiq auditor tomonidan auditorlik tekshiruvi dasturida ko'rsatilishi lozim. Bunda auditorlik amallaridan qaysilarini (nazorat vositalari testi yoki mohiyatan tekshirishlar) va qaysi uchastkalarda qo'llash maqsadga muvofiqligini aniqlash zarur.

Etarli darajadagi va ishonarli dalillarga ega bo'lish uchun mohiyatan o'tkaziladigan auditorlik amallari va analitik amallardan foydalaniladi. Auditor hisob va hisobotning ma'lum bo'limlarini tekshirishda qo'llaniladigan auditorlik amallarini batafsil bayonini dasturda aks ettirishi zarur. Bunda ayrim muomalalarni tekshirishda qo'llaniladigan amallar mazmuni aks ettirilgan, oldindan ishlab chiqilgan taxminiy ro'yxatlardan foydalanish mumkin.

3. Auditorlik dalillarini olish usullari (qayta hisoblash, inventarizatsiya, xo'jalik muomalalarini hisobga olish qoidalariga rioya qilinishi, tasdiqlash, og'zaki so'rov, hujjatlarni tekshirish, kuzatib chiqish, analitik amallar) standartda keltirilgan.

Auditor quyidagilarni aniqlaydi: muayyan vaziyatda qanday usullarni qo'llashi; u yoki bu usulni qaysi ob'ektlarga nisbatan (aktivlar, passivlar, majburiyatlar, sub'ektlar va hokazo) qo'llash zarurligi auditorlik amallarini qanday ketma-ketlikda bajarishni.

Auditor tomonidan olingan dalillarning etarliligi va ishonarliligi turli amallar, usullar va zarur dalillarni olish manbalarini muvofiqlashtirish natijasida ta'minlanadi.

4. Auditorlik tekshiruvlari uchun axborotlarni to'plash. Buning uchun audit dasturidagi har bir bo'lim bo'yicha normativ-savolnoma va hisob-hisobot ma'lumotlarining zarur ro'yxati tuziladi. Normativ-savolnoma ma'lumotlar

ro'yxati asos sifatida shakllantiriladi. Auditor bu ro'yxatni tekshiruv ob'ektiga nisbatan aniqlashtiradi. Tekshiruvda ishtirok etadigan xodimlar ushbu ro'yxatdagi hujjatlarning mazmuni bilan tanishtirilgan bo'lishlari lozim. Tekshiruvni boshlashdan oldin hisob-hisobot ma'lumotlari – mijoz-korxonadan talab qilib olinadigan hujjatlar va registrlarning ro'yxatini ham tuzish zarur.

5. Auditorlik amallarni bajarish va audit jarayonida aniqlangan dalillarni bayon qilish. Bu bosqichda auditor auditni rejalashtirish chog'ida belgilangan tanlov hajmidan kelib chiqadi. Aniqlangan tafovutlar ularni aniqlash amallari yoki kodlari va audit jarayonida aniqlangan dalillarning batafsil bayoni ko'rsatilgan holda ishchi hujjatlarda ro'yxatga olinadi. Bayon qilish vaziyatdan kelib chiqqan holda, ixtiyoriy holda bo'lishi mumkin yoki maxsus ishlab chiqilgan ishchi hujjatlar shakllarini to'ldirish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

6. To'plangan dalillarni baholash deganda ularning audit maqsadiga erishish va ishonchliligini aniqlashdagi rolini belgilash tushuniladi.

Dalillarni baholashda quyidagilarni aniqlash zarur: manbaning mustaqilligi, olingan faktlar va boshqa ma'lumotlardan dalil sifatida foydalanish mumkinligi (ya'ni buning qonunga zid emasligi); mazkur dalilning tekshiriladigan ob'ektga taalluqliligi; tanlash hajmi va metodologiyasi. Shuningdek, mazkur dalilning ob'ekt bo'yicha to'plangan boshqa dalillar bilan aloqadorligi; ushbu aloqadorlikning ko'lami va tavsifi; olingan dalillarning keyingi audit jarayonida ko'llanilish imkoniyatlari; aniqlangan tafovutlarning jiddiylik darajasi; olingan dalillar to'plamining qaror qabul qilish uchun etarliligini ham aniqlash zarur. Bundan ko'rinadiki, auditor moliyaviy hisobotning u yoki bu moddasi bo'yicha jiddiy xatolar yo'qligi haqida ishonch hosil qilishi lozim.

Demak, auditorlik tekshiruvlari ish sifatini oshirishda auditorlik amallari va auditorlik dalillar to'plashning o'ziga xosligiga aloxida etibor qaratmog'i lozim. Afsuski barcha auditorlik tashkilotlarida bunday ijobiy axvol xukm surmoqda deb ayta olmaymiz. Ayrim iqtisodchilarning fikriga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida "bugungi kunda qo'shimcha yana 3000 dan ko'proq



auditorlarni tayyorlash lozimligi”<sup>11</sup> ta’kidlangan. Yetishib chiqayotgan auditorlar tadqiqotda keltirilayotgan jixatlardan foydalanishi foydadan xoli emas, albatta. Chunonchi, auditorlik xulosalari auditorlik dalillarini to’plash jarayoni bilan uzviy bog’liq. Dalillarni to’plash uchun avvalambor audit maqsadi va vazifalarini io’g’ri anglab olish talab etiladi. Bizning fikrimizcha, auditorlik dalillarni to’plash jarayoni bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda quyidagi bosqichlarda namoyon bo’ladi:

asosiy kapitalga investitsiyalarning haqqoniyligini baxolash, ushbu bahoni berish uchun etarli dalil yig’ish;

Buxgalteriya balansida asosiy kapitalga investitsiyalarga oid ma’lumotlar umumlashtiriladi;

asosiy kapitalga investitsiyalar holati bo’yicha tasdiqlari va tushuntirishlarini tekshirish;

asosiy kapitalga investitsiyalar auditining asosiy maqsadini belgilash.

Auditor ushbu bosqichlardan o’tar ekan, o’z izlanishlarini chuqurlashtiradi va audit oldiga qo’yilgan maqsadga erishadi. Moliyaviy xolatning to’g’ri yo’lga qo’yilayotganiga baxo beruvchi auditorlik tekshiruvlarining ish unumiga e’tiborni kuchaytiradi. “Mohiyati jixatdan audit mustaqil nazorat shakli ekanligini hisobga olsak, ushbu faoliyatning sifat nazorati masalasi vujudga keladi”.<sup>12</sup> Shu sababli auditorlik tekshiruv jarayonida auditorlik amallari va auditorlik dalillar to’plash asosiy vazifa bo’lib qolmoqda.

Auditor auditorlik dalillarini to’plashda har xil usullardan foydalanadi. (13-chizma)<sup>13</sup>.

Ushbu usullardan foydalanish orqali auditor auditorlik tekshiruvlarining ko’lamini ijobiy kengaytiradi, auditorlik xulosasi va hisoboti tuzishda mavjud kamchiliklarni bartaraf etadi, shuningdek auditorlik tekshiruvlari ish sifatini etarli


---

<sup>11</sup> Mamatov Z.T. «Xo’jalik yurituvchi sub’ektlarda moliyaviy hisobot auditini takomillashtirish masalalari» 08.00.08 Iqtisod fan. doktori-Avtoreferat// O’zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi.-Toshkent.,2005.-40-b.

<sup>12</sup> Hamdamov B.Q. «O’zbekiston iqtisodiyotining hisob va hisobot tizimida auditorlik nazoratini rivojlantirishning uslubiy asoslari » 08.00.08 Iqtisod fan. doktori-Avtoreferat // O’zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi.-Toshkent.,2007.-26-b.

<sup>13</sup> №50 Auditorlik dalillar A.F.M.S.ga asosan mullif tomonidan tuzilgan

darajada ta'minlashga erishish mumkin.



#### **4-chizma. Qimmatli qog'ozlar auditida dalillarni olish usullari<sup>14</sup>.**

№50-«Auditorlik dalillar» nomli AFMSda keltirilgan asosiy usullarning mazmunini ko'rib chiqamiz. Bular: mijoz-korxonaning arifmetik hisob-kitoblarini tekshirish (qayta hisoblash); inventarizatsiya; ayrim xo'jalik muomalalarini hisobga olish qoidalariga rioya qilinishini tekshirish; tasdiqlash; xo'jalik yurituvchi sub'ekt va mustaqil (uchinchi) tomonlar xodimlarini og'zaki so'rovdan o'tkazish; hujjatlarni tekshirish; ko'rib chiqish; tahliliy amallar; muqobil balans tuzish kabi usullardir.

Mijoz korxonaning arifmetik hisob-kitoblarini tekshirish (qayta hisoblash) uning mazmuni hujjatlar va buxgalteriya yozuvlarining arifmetik aniqligini tekshirish hamda mustaqil hisob-kitoblarni bajarishdan iborat.

№50-«Auditorlik dalillar» nomli AFMSda qayta hisoblashlar tanlab amalga oshirilishi tavsiya qilingan. Tanlash ko'lamini va uning elementlari auditor tomonidan ichki nazorat tizimining ahvolini hisobga olgan holda mustaqil aniqlanadi.

<sup>14</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Hujjatni rasmiylashtirishdan hisobot tuzilgunga qadar ma'lumotlarni shakllantirish ustidan o'rnatilgan samarali ichki nazorat tizimi (moddiy javobgar shaxslarni o'zaro qa-rama-qarshi tekshirish, rahbariyat, bosh buxgalter va buxgalterlar tomonidan nazorat) sodir bo'lishi mumkin bo'lgan arifmetik xatolarni, natijada auditorlik riskni pasaytiradi.

Qo'lda to'lg'azilgan hujjatlar va hisob registrlari (ma'lumotnomalar va hisob-kitoblar, kassa hisobotlari, bo'nak hisobotlari, hisoblashuv-to'lov vedomostlari va boshqalar) qayta hisoblashdan o'tkaziladi.

Agar mijoz-korxonada hisob ishlari kompyuterlashtirilgan bo'lsa, dastlabki hujjatlar va hisob registrlaridagi arifmetik hisoblashlarni tekshirish zarurati oshadi. Bu kompyuter dasturlarini ataylab noto'g'ri tuzish va arifmetik xatolarni kompyuter klaviaturasidan noto'g'ri kiritish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Arifmetik hisob-kitoblarni tekshirish kompyuter dasturiga kiritilgan hisob-kitoblar algoritmini nazorat qilishni taqozo etadi. Agar xo'jalik yurituvchi sub'ekt buxgalteriya hisobi kompyuterlashtirilgan bo'lsa, hisob-kitoblarni tekshirish ham kompyuterdan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Inventarizatsiya–mijoz korxona mol-mulklarining mavjudligi to'g'risida aniq ma'lumot olishga imkon beradi. Bunda barcha mol-mulklar (debitor qarzlar ham) va kreditor qarzlar inventarizatsiya qilinishi zarur.

Xalqaro va Milliy audit standartlariga muvofiq auditorlar o'zlari inventarizatsiya o'tkazishi shart emas, ammo uning o'tkazilishi ustidan nazorat qilishi lozim. Bu butun ichki nazorat tizimining va ayrim nazorat vositalarining ishonchliligini baholashga imkon beradi. Masalan, mijoz-korxonaning joriy yildagi hisob siyosatida mol-mulklar va majburiyatlarni inventarizatsiya qilish tartibi ko'rsatilmagan bo'lsa, shuningdek, moddiy javobgar shaxslar almashga-nida ham yillik moliyaviy hisobotni tuzishdan oldin ham inventarizatsiya o'tkazilmagan bo'lsa, bu hol auditorga ichki nazorat tizimining ishonchliligini past deb baholashga asos bo'ladi. Inventarizatsiya jarayonida auditor xo'jalik muomalalarini dastlabki hujjatlarda o'z vaqtida va sifatli rasmiylashtirilishi, moddiy javobgar shaxslar tomonidan moddiy boyliklarning harakati to'g'risidagi

hisobotlarni tuzish tartibi va operativ hisob yuritish to'g'risida, korxonaning o'ziga tegishli va komissiyaga qabul qilingan tovarlari hamda materallarining saqlanish tartibi to'g'risida ma'lumot olishi mumkin. Inventarizatsiya o'tkazish jarayonida hisobda aks ettirilmagan faktlar aniqlanishi ham mumkin. Bu holat moddiy boyliklarni saqlash bo'yicha xizmat ko'rsatish, binolarni shartnoma tuzmasdan ijaraga berish va shunga o'xshashlar bilan bog'liq.

Auditor inventarizatsiya o'tkazilishini kuzatishda №19-«Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish tartibi» nomli AFMS va 1054-qaror hamda boshqa me'yoriy hujjatlar talablariga rioya qilinishini tekshiradi. Inventarizatsiya o'tkazish tartibiga ma'lum talablar qo'yiladi. Masalan, №19 BHMSga muvofiq inventarizatsiya o'tkazish chog'ida komissiya a'zolaridan birortasining ishtirok etmasligi uning natijalarini haqiqiy emas deb hisob-lashga asos bo'ladi. Inventarizatsiya jarayonida aniqlangan moddiy boyliklar kamomadi va buzilishining tabiiy kamayish me'yoridan oshgan qismini hisobdan o'chirish uchun taqdim qilingan hujjatlarga, aybdor shaxslarning yo'qligini tasdiqlaydigan tergov yoki sud organlarining qarori, yoki etkazilgan zararni aybdor shaxsdan undirishning rad etilishi, yoki moddiy boyliklarning buzilish faktini tasdiqlovchi texnik nazorat bo'limi yoki tegishli maxsus tashkilotlardan olingan xulosalar ilova qilingan bo'lishi shart.

Hisobot yilida o'tkazilgan inventarizatsiya natijalarining ma'lumotlari korxona tomonidan maxsus dalolatnomalar, qaydnomalar va boshqa tegishli hujjatlarda umumlashtirilishi lozim.

Inventarizatsiyaning o'tkazilishini kuzatish, shuningdek inventarizatsiya materiallarini tahlil qilish auditorga buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini tashkil etilishini to'g'ri baholash imkonini beradi.

Alohida xo'jalik muomalalarini hisobga olish qoidalariga rioya qilinishini tekshirish bevosita ushbu ishlarning bajarilish paytida amalga oshiriladigan hisob ishlari ustidan nazorat o'rnatishni nazarda tutadi. "Auditor u yoki bu xo'jalik muomalasining hujjatlar bilan qanday rasmiylashtirilayotganligi, hamda bunday faktlarni hisob registrlarida aks ettirishning ketma-ketligi ustidan nazorat

o'rnatishni kuzatadi"<sup>15</sup>. Bu ichki nazoratning ahvoli kabi, buxgalteriya hisobini yuritish tartibiga rioya qilinishini ham baholashga imkon beradi.

Tasdiqlash auditorlik dalili sifatida hisob-kitob va valyuta schetlaridagi, mol etkazib beruvchilar, xaridorlar, buyurtmachilar, turli debitorlar va kreditorlar bilan hisob-kitoblar hisobga olinadigan schetlardagi qoldiqlarning haqqoniyligi to'g'risidagi ma'lumotlarni olish uchun qo'llaniladi.

№50 AFMSGa muvofiq: «auditorlik tashkiloti pul mablag'lari, hisob-kitoblar, debitorlik va kreditorlik qarzlari hisobga olinadigan schetlarning qoldiqlari to'g'ri-sidagi ma'lumotlarning haqqoniyligini tasdiqlovchi auditorlik dalillarini mustaqil (uchinchi) tomonlardan yozma ravishda olishi lozim». Hisob-kitob va valyuta schetlaridagi qoldiqlar bank ko'chirmalari bilan, debitorlik va kreditorlik qarzlarning haqqoniyligi esa taqqoslash dalolatnomalari bilan tasdiqlanadi. Hisob-kitoblarning ahvoli, oldi-sotdi ishlarining shartlarini va shunga o'xshashlarni tasdiqlovchi zarur ma'lumotlarni olish uchun turli tashkilotlarga so'rovlar jo'natiladi.

Ma'lumotlarni tasdiqlash uchun jo'natiladigan so'rovlar mijoz korxona rahbariyati nomidan tayyorlanib, unda tasdiqlovchi javobni auditorlik tashkilotiga jo'natish so'raladi. Shunday qilib, mijoz-korxona tomonidan ma'lumotni tasdiqlash uchun uchinchi tomonga jo'natilgan so'rovning yozma tasdigini auditorlik tashkiloti oladi.

Zarur hollarda auditorlik tashkiloti tasdiqlatish uchun so'rov jo'natilgan uchinchi tomon bilan bevosita aloqa o'rnatishi ham mumkin.

Agar auditorlik tashkiloti salbiy javob olsa yoki umuman javob olmasa, u holda mijoz korxona ma'lumotlarining haqqoniyligini aniqlashtirish uchun qo'shimcha auditorlik amallarini qo'llashi zarur.

Xodimlardan og'zaki so'rov o'tkazish – bu mijoz korxona xodimlari yoki uchinchi shaxslardan og'zaki muloqat va javoblarni baholash yo'li bilan tasdiqlovchi ma'lumotlarni olish usulidir. Mazkur usul auditorga ichki nazorat

---

<sup>15</sup> Do'smurotov R.D. Audit asoslari.-T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 2003.-86 b.

tizimini baholash, risk chegaralarini aniqlash va auditorlik tekshiruvining strategiyasini ishlab chiqish chog'ida fikr yuritish uchun keng ko'lamdagi ma'lumotlarni beradi. Mijoz korxona va uchinchi tomon xodimlari hamda rahbariyati orasida so'rov o'tkazish auditorlik tekshiruvining barcha bosqichlarida amalga oshirilishi mumkin.

Auditni rejalashtirish bosqichida, xususan mijoz korxonaning holati va biznesining kelajagi hamda ichki nazoratning tashkil etilishi to'g'risida tasavvurga ega bo'lish zarur. Ushbu maqsadda korxona rahbariyati orasida so'rov o'tkazilishi mumkin. Olingan javoblarni tahlil qilish asosida tekshiruv jarayonda keyinchalik bajarilgan auditorlik amallarining natijasida tasdiqlanadigan yoki tasdiqlanmaydigan muayyan jihatlar bo'yicha auditorda aniq fikr shakllanadi.

Bitta manbadan olingan, ushbu ma'lumotning og'zaki tavsifdaligini e'tiborga olgan holda, auditor qilingan xulosaga tayanishi mumkin emas, ya'ni kushimcha dalillar tuplashi zarur. Auditorlik tekshiruv jarayonida bevosita ijrochilar (menejerlar, moddiy javobgar shaxslar, buxgalterlar va b. ) bilan suhbatlashib, mansab yo'riqnomalarining aniq ijrochilariga etkazilganligini aniqlashi va shu bilan birga ichki nazoratning ishonchliligi yoki yuzakiligi to'g'risida qo'shimcha dalillar olishi mumkin.

Shuni qo'shimcha qilish lozimki, "audit ko'lami mijoz tomonidan yoki tashqi sharoitlar ostida chegaralanganligi auditorga bog'liq"<sup>16</sup>

№50-«Auditorlik dalillar» nomli AFMSga muvofiq og'zaki so'rov natijalari bayonnoma yoki qisqacha konspekt ko'rinishida yozib borish zarur bo'lib, unda so'rov o'tkazgan auditorning familiyasi, hamda so'ralgan shaxsning familiyasi, ismi-sharifi ko'rsatilgan bo'lishi shart. Og'zaki so'rovlar o'tkazish uchun har xil muammolar (masalan, ayrim muomalalarni uchastkalar, faoliyat turlari yoki bo'linmalar bo'yicha hujjatlar bilan rasmiylashtirish tartibi va hujjatlar aylanishini baholash) bo'yicha anketalar oldindan tayyorlangan bo'lishi mumkin. Auditorlik tashkilotlari savollar ro'yxati bilan standart testlar tayyorlab, unda so'ralgan

---

<sup>16</sup> Е.А. Аренс, Дж. К. Лоббек. «Аудит».-Москва: « Финанси и статистика», 1995.–с.68.

shaxslarning javoblari ko'rsatiladi.

Javoblarning auditor tomonidan baholanishi so'rov o'tkazish jarayonining muhim qismi bo'lib, og'zaki so'rovlar natijalari bo'yicha tayyorlangan yozma ma'lumot auditorlik tashkilotining boshqa ishchi hujjatlariga qo'shimcha qilinadi.

Hujjatlarni tekshirishda auditor ko'rib chiqayotgan ma'lum hujjatning haqqoniyligiga ishonch hosil qilishi lozim. Ushbu maqsadda buxgalteriya hisobida ma'lum yozuvlarni tanlab olish va xo'jalik faoliyatida sodir bo'lgan faktning hisobda aks ettirilishi kuzatib chiqiladi.

Hujjat bilan ishlashda uning kim tomonidan tuzilganligi muhim ahamiyatga ega. Mijoz korxona tomonidan tayyorlangan va ishlov berilgan hujjatlar ichki hujjatlar hisoblanadi. Auditorlik tashkilotiga qay darajada ishonish bunday hujjatlarni tuzish va ishlov berish ustidan o'rnatilgan mijoz-korxona ichki nazorat vositalarining ishonchliligiga bog'liq. Uchinchi shaxslar tomonidan tayyorlangan va xo'jalik yurituvchi subektlarga yuborilgan tashqi hujjatlar ichki hujjatlarga qaraganda ishonchliroq hisoblanadi.

Hujjatlarni tekshirish chog'ida ularning o'z vaqtida va aniq rasmiylashtirilganligi, majburiy rekvizitlarning mavjudligi va to'g'riligini aniqlash ham zarur. Auditorlar hujjatlarni tekshiruvdan o'tkazishda ularning buxgalteriya hisobi registrilariga o'z vaqtida, aniq va to'liq aks ettirilishiga ham e'tibor berishlari kerak.

Kuzatib chiqish – bu sintetik va analitik hisob registrilarida dastlabki hujjatlar ma'lumotlarining aks ettirilishini, ayrim dastlabki hujjatlarni tekshiradigan, yakuniy schetlar korrespondentsiyasini topadigan va xo'jalik faoliyatining tegishli faktlari buxgalteriya hisobida to'g'ri yoki noto'g'ri aks ettirilganligini tekshirish jarayonidir.

Kuzatib chiqish dastlabki hujjatlardan sintetik va analitik hisob registrilariga, bosh daftarga va hisobotlarga tomon, yoki ko'p hollarda uchraydigan, teskari tomon yo'nalishida amalga oshiriladi. Kuzatib chiqish, xususan, mijoz-korxona hujjatlarida aks ettirilgan notipik moddalar va hodisalarni o'rganishga imkon beradi.

Auditor kuzatib chiqish uchun dastlabki hujjatlarni №14-«Auditorlik tanlash» nomli AFMSGa muvofiq tanlab oladi.

Tahliliy amallar deganda auditor tomonidan olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va baholash, g'ayrioddiy va buxgalteriya hisobida noto'g'ri aks ettirilgan xo'jalik faoliyati faktlarini aniqlash, hamda bunday xatolar va chalkashliklar-ning sabablarini aniqlash maqsadida tekshirilayotgan xo'ja-lik yurituvchi subektning muhim moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlarini o'rganish tushuniladi.

Tahliliy amallar moliyaviy tahlilning taqqoslash, nisbatlar va koeffitsientlarni baholash kabi elementlari va usullaridan foydalanishni nazarda tutadi.

Tahliliy amallarning eng ko'p tarqalgani taqqoslash bo'lib hisoblanadi. Bunda quyidagilar taqqoslanadi: turli davrlar uchun schetlardagi qoldiqlar; moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari biznes-reja ko'rsatkichlari bilan; hisobot-ning har xil moddalar bilan oldingi davrlar ma'lumotlari o'rtasidagi nisbat; xo'jalik yurituvchi subekt moliyaviy ko'rsatkichlari iqtisodiyotning tegishli tarmogidagi o'rtacha ko'rsatkichlar bilan; moliyaviy axborotlar nomoliyaviy axborotlar (xo'jalik yurituvchi subektning faoliyati to'g'risidagi uning buxgalteriya hisobi tizimida bevosita aks ettirilmaydigan ma'lumotlar) bilan.

Tahliliy amallar hisob va hisobot ma'lumotlarini ko'rsatkichlar orasidagi o'zaro bog'liqliklarni o'rganish, hisobot ma'lumotlarini va ularning o'zgarish tendentsiyalarini taqqoslash, hisobot moddalari va ko'rsatkichlarining keskin farq qilish sabablarini o'rganishni nazarda tutadi.

Masalan, asosiy vositalar qiymatining ko'payishi odatda amortizatsiya summalarining ko'payishiga ham olib keladi. Nomuvofiqlik aniqlanganda auditor tegishli dalillarni topishi lozim. Aytaylik, asosiy vositalar kirimini tekshirib mijoz-tashkilot mazkur aktivlarni byudjetdan moliyalashtirish hisobiga sovg'a shartnomasi bo'yicha olganligini aniqladi. Bunday obektlar bo'yicha esa amortizatsiya hisoblanmaydi. Shunday qilib aniqlangan nomuvofiqlikka auditor tomonidan qoniqarli isbot topilgan.



### 2.3. Qimmatli qog'ozlar auditi natijalarini umumlashtirish jarayoni

Qimmatli qog'ozlar auditining yakunlovchi bosqichi auditorlik hisobotini rasmiylashtirish hisoblanadi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning buxgalteriya hisobi haqidagi xulosasi auditorlik tashkilotning bu hisobotning ishonchliligi to'g'risidagi fikrini ifodalaydi.

Korxonani buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisoboti holatini tekshirish natijalari to'g'risidagi axborot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishning belgilangan tartibiga rioya qilinishini baholash;
- auditorlik tekshiruvi davomida aniqlangan buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlashning belgilangan tartibini jiddiy buzishlar bayoni.

Qimmatli qog'ozlar auditining yakuniy bosqichida quyidagi jadvalda keltirilgan tartibda audit amallari bajarilishi lozim.

**2-jadval.**

#### **Qimmatli qog'ozlar auditining yakuniy bosqichi va unda bajariladigan amallar**

| YaKUNIY BOSQICH                    |                                    |                                    |
|------------------------------------|------------------------------------|------------------------------------|
| Balans moddalarini auditi taxlili  | Auditning sifat nazorati           | Moliyaviy taxlil                   |
| Izox yozuvlarini taxlili           | Muxim sanalar                      | Taxliliy (analitik) ko'rsatkichlar |
| Xisobot davridan keyingi xodisalar | Auditning mustaqilligi             | Bankrotlikdan yiroqlik             |
| Faoliyatning uzluksizligi          | Xulosa sifatida                    | Likvidlik                          |
| Yozma axborot                      | Ishchi xujjatlarning mavjudligi    | To'lovga qobiliyatlilik            |
| Axborot (ma'lumot) xati            | Audit jarayonlari                  | Moliyaviy barqarorlik              |
| Auditor xisoboti                   | Auditor xisoboti mazmuni (tarkibi) | Tushum va tannarx                  |
| E'tirozsiz-ijobiy xulosa           | Ishchi fayllar mazmuni             | Foyda dinamigi                     |
| Salbiy xulosa                      | Sifatini baxolash                  | Rentabellik                        |
| Xulosa berishdan voz kechish       |                                    |                                    |

“Auditorlik hisoboti va moliyaviy hisobot to'g'risidagi auditorlik xulosasi” nomli 70-son AFMSGa binoan, auditorlik hisoboti - xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbari, mulkdori, ishtirokchilari (aktsiyadorlari) umumiy yig'ilishiga taqdim etiladigan, auditorlik tekshiruvining borishi, buxgalteriya hisobini yuritishning belgilangan tartibidan aniqlangan chetga chiqishlar, moliyaviy hisobotdagi huquq

buzilishlari to'g'risida batafsil ma'lumotlar, shuningdek, auditorlik tekshiruvini o'tkazish natijasida olingan va auditorlik xulosasini tuzish uchun asos hisoblanadigan boshqa axborotdan iborat bo'lgan hujjat<sup>17</sup>.

Auditorlik xulosasi - moliyaviy hisobotning haqqoniyligi (to'g'riligi) va buxgalteriya hisobini yuritish tartibining qonun hujjatlari bilan belgilangan talablarga muvofiqligi to'g'risida auditorlik tashkilotining fikri yozma shaklda ifodalangan va xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisobotidan foydalanuvchilar uchun ochiq bo'lgan hujjat<sup>18</sup>.

Auditorlik hisobotida quyidagilar bo'ladi:

- a) nomi ("Auditorlik hisoboti" yoki "Auditorlik tashkilotining hisoboti": ikkala nom bir xil kuchga ega);
- b) adresatning nomi;
- v) kirish qismi;
- g) tahliliy qism;
- d) yakuniy qism.

Auditorlik hisobotining har bir sahifasiga moliyaviy hisobotning auditorlik tekshiruvini amalga oshirgan auditor (auditorlar) imzo chekishi shart.

Auditorlik hisobotining kirish qismida auditorlik tashkiloti rekvizitlari, shu jumladan auditorlik faoliyatini amalga oshirishga litsenziyaning raqami va sanasi, auditorlar va auditorlik tekshiruvda qatnashgan boshqa shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek, auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun asos va xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatining umumiy tavsifi keltiriladi.

Auditorlik hisobotining tahliliy qismi AFMAga havola qilishi va unda quyidagilar bo'lishi shart:

xo'jalik yurituvchi sub'ektda ichki nazorat holatini tekshirish natijalari (batafsil bayoni);

buxgalteriya hisobi holati va moliyaviy hisobotni tekshirish natijalari;

moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish paytida qonunchilik

<sup>17</sup> "Auditorlik hisoboti va moliyaviy hisobot tqg'risidagi auditorlik xulosasi" nomli 70-son AFMS –T.: O'BAMA, 2004. 3-band

<sup>18</sup> "Auditorlik hisoboti va moliyaviy hisobot tqg'risidagi auditorlik xulosasi" nomli 70-son AFMS –T.: O'BAMA, 2004. 4-band.

talablariga rioya etilishini tekshirish natijalari;

solliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash hamda to'lashning to'g'riligini tekshirish natijalari;

aktivlarning butligini tekshirish natijalari.

Xo'jalik yurtiuvchi sub'ekt ichki nazoratining holatini tekshirish natijalari to'g'risidagi axborot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- ichki nazorat tizimining xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatining miqyoslari va xususiyatiga muvofiqligi umumiy bahosi;

- auditorlik tekshiruvi mobaynida aniqlangan ichki nazorat tizimining xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatining miqyoslari va xususiyatiga jiddiy nomuvofiqliklari bayoni.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirish paytida qonunlarga rioya etishini tekshirish natijalari to'g'risidagi axborot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- Xo'jalik yurituvchi sub'ekt amalga oshirgan moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarining qonunchilikka muvofiqligini baholash;

- auditorlik tekshiruvi davomida aniqlangan, xo'jalik yurituvchi sub'ekt amalga oshirgan moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarning qonunchilikka jiddiy nomuvofiqliklari bayoni.

Solliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblashi va to'lashning to'g'riligini tekshirish natijalari to'g'risidagi axborot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- tuzilgan va tegishli organlarga taqdim etilgan solliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'riligining bahosi;

- solliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash va to'lashning belgilangan tartibini buzish faktlari, soliq solinadigan bazani belgilash paytidagi chetga chiqishlar bayoni.

Aktivlar butligini tekshirish natijalari aktivlarni inventarlashga asoslanishi va o'z ichiga ularning haqiqatda mavjudligi va butligi to'g'risidagi ma'lumotlarni olishi kerak.

Auditorlik hisobotining yakuniy qismi auditorlik tashkilotining aniqlangan chetga chiqishlar va huquq buzilishlarini bartaraf etishga doir tavsiyalarini, shuningdek xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirishga doir takliflari va maslahatlarini o'zi ichiga olishi kerak.

Auditorlik tashkiloti auditorlik hisobotini tuzganlik uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

Auditorlik hisobotida keltirilgan axborot maxfiy hisoblanadi va oshkor etilmasligi kerak. Axborotni oshkor etganlik uchun ushbu axborotdan foydalana oladigan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

Auditorlik xulosasi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- a) nom ("Auditorlik xulosasi" yoki "Auditorlik tashkilotining xulosasi": ikkala nom teng huquqli);
- b) adresatning nomi;
- v) kirish qismi;
- g) qayd etish qismi;
- d) yakuniy qism;
- e) auditorlik xulosasini berish sanasi;
- j) auditorlik tashkiloti manzili;
- z) auditorlar va auditorlik tashkiloti rahbarining imzosi.

Auditorlik xulosasi auditorlik tashkilotining muhri bilan tasdiqlanishi kerak.

Auditorlik tashkiloti auditorlik xulosasi shaklining bir xilligiga rioya qilishi kerak.

Auditorlik xulosasi auditorlik tekshiruvining buyurtmachisiga yo'llanib, buyurtmachining barcha zaruriy rekvizitlari ko'rsatilishi kerak.

Auditorlik xulosasining kirish qismi auditorlik tashkilotining quyidagi rekvizitlarini o'z ichiga olishi kerak:

auditorlik tashkilotining yuridik manzili va telefonlari;

auditorlik faoliyatini amalga oshirish huquqiga litsenziya raqami, berilgan sana va litsenziya bergan organning nomi;

auditorlik tashkiloti davlat ro'yxatiga olingani to'g'risidagi guvohnoma

raqami;

auditorlik tashkiloti hisob-kitob varag'ining raqami;

auditorlik tekshiruvida ishtirok etgan auditor (auditorlar)ning, shuningdek, auditorlik tashkiloti rahbarining familiyasi, ismi va otasining ismi.

Kirish qismida sana va hisobot davri ko'rsatilgan holda tekshirilgan moliyaviy hisobotlar ro'yxati keltirilishi kerak.

Kirish qismida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt auditorlik tekshiruvdan o'tkaziladigan moliyaviy hisobotni tayyorlash va uning haqqoniy bo'lishi uchun javobgar;

auditorlik tashkiloti auditorlik xulosasining xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalariga muvofiq bo'lishi uchun javobgar.

Auditorlik xulosasida auditorlik tekshiruvi AFMAga muvofiq o'tkazilgani qayd etilishi kerak.

Qayd etuvchi qismda auditorlik tekshiruvi moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot qonun hujjatlariga, shuningdek moliyaviy-xo'jalik faoliyatining haqiqiy holatiga muvofiqligi va haqqoniyligini baholashga asoslanishi ko'rsatilishi kerak.

Qayd etuvchi qismda auditorlik tekshiruvi fikrni ifodalash uchun etarlicha asoslar berishi xususida auditorlik tashkilotining tasdig'i berilishi kerak.

Auditorlik xulosasining yakuniy qismida auditorlik tashkilotining tekshirilgan moliyaviy-hisobot xo'jalik yurituvchi sub'ekt moliyaviy-xo'jalik faoliyatining haqiqiy holati to'g'risida haqqoniy tasavvur berish-bermasligi va moliyaviy hisobot qonun hujjatlariga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi xususidagi fikri ravshan bayon etilishi kerak.

Auditorlik xulosalarining quyidagi turlari mavjud:

a) ijobiy auditorlik xulosasi;

b) salbiy auditorlik xulosasi.

Auditorlik tashkiloti xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisoboti uning moliyaviy ahvolini haqqoniy yoritadi va xo'jalik yurituvchi sub'ekt amalga oshirgan moliyaviy va xo'jalik operatsiyalari O'zbekiston Respublikasining

qonunchiligi talablariga muvofiq degan fikrga kelganda ijobiy auditorlik xulosasi tuzilishi kerak.

Auditorlik tashkiloti xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisobotida, agar xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan bartaraf etilmasa, moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarni chalg'itishi mumkin bo'lgan buzilishlar mavjud degan fikrga kelsa, salbiy auditorlik xulosasi tuzilishi kerak.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt amalga oshirgan moliyaviy va xo'jalik operatsiyalari moliyaviy hisobotda haqqoniy aks ettirilgan, lekin qonunchilik talablariga muvofiq kelmaydigan hollarda ham salbiy auditorlik xulosasi tuziladi.

Odatda xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariyatining auditorlik tashkilotining aniqlangan buzilishlarni bartaraf etish maqsadida moliyaviy hisobotga tuzatishlar kiritish to'g'risidagi fikriga qo'shilmasligi salbiy auditorlik xulosasini tuzishga sabab bo'ladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt auditorlik tekshiruvi davomida aniqlangan buzilishlarni bartaraf etgan holda salbiy auditorlik xulosasi tuzilmaydi.

## **II bob bo'yicha xulosa**

Dissertatsiyaning 2-bobida iqtisodiyotni diversifikatsilash sharoitida qimmatli qog'ozlar auditini tashkil qilish va o'tkazishning amaldagi holati yoritib berilgan. Xususan mazkur bobda qimmatli qog'ozlar auditini rejalashtirish, qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalarni tekshirishda auditorlik amallarini qo'llashning o'ziga xos jihatlari hamda qimmatli qog'ozlar audit natijalarini umumlashtirish jarayoni bayon etilgan.

Qimmatli qog'ozlar auditini o'tkazish auditorlik rejalashtirishidan boshlanadi. Qimmatli qog'ozlar auditini rejalashtirish audit o'tkazishning boshlang'ich bosqichi hisoblanib, audit o'tkazishning kutilayotgan hajmi, jadvallari va muddatlarini ko'rsatgan holda auditorlik tashkiloti tomonidan auditning umumiy rejasi ishlab chiqiladi. Shuningdek, auditorlik tashkiloti tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisoboti to'g'risida xolis va asosli fikrlarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan auditorlik rusum-qoidalarini amalga oshirish hajmi, turlari va izchilligini belgilaydigan auditorlik dasturi tuziladi.

### **III BOB. QIMMATLI QOG'OZLAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH**

#### **3.1. Qimmatli qog'ozlar auditining uslubiy jihatlarini takomillashtirish**

Hozirgi kunda auditorlik faoliyati har tomonlama rivojlanmoqda va xalqaro standartlar talablari asosida tashkil etilmoqda. Shu boisdan auditning barcha ob'ektlaridagi kabi qimmatli qog'ozlar auditida ham xalqaro standartlar talablari keng qo'llanilishi taqozo etilmoqda.

Qimmatli qog'ozlar auditini tashkil etishda, avvalo, uning dasturini tuzib olish lozim. Ammo, hozirgi kunda ko'pchilik milliy auditorlik tashkilotlarida auditorlik tekshiruvining dasturi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan qabul qilingan «Auditni rejalashtirish» nomli 3-son AMS asosida tuzilmayapti. Vaholanki, ushbu standartda ko'rsatilgan tadbirlar auditorlik tekshiruvida muhim o'rinni egallaydi, shu bilan birgalikda u «Auditni rejalashtirish» nomli 4-son auditning xalqaro standartiga to'la-to'kis mos keladi.

Qimmatli qog'ozlar auditini dasturini tuzishda auditor mijozning faoliyati bilan chuqur tanishishi lozim. Bu haqda standartning 17-bandida shunday deyilgan:

«Audit umumiy rejasi va dasturini ishlab chiqishga kirisharkan, auditorlik tashkiloti xo'jalik yurituvchi sub'ekt to'g'risidagi dastlabki bilimlarga, shuningdek, o'tkazilgan tahliliy rusum-qoidalarining natijalariga asoslanishi kerak».<sup>1</sup>

Darhaqiqat, agarda auditor mijozning faoliyat turi, mulkchilik shakli, xo'jalik yuritish uslubi, tarmoq texnologiyasi va shunga o'xshash ma'lumotlarga to'la-to'kis ega bo'lmas ekan qimmatli qog'ozlar auditining dasturini belgilangan andozadagidek tuza olmaydi.

Korxonalarda qimmatli qog'ozlar auditini tashkil etish, rejalashtirish va sifatli auditorlik xizmatidan foydalanish uchun auditorlik firmalari faoliyati va auditorlar malakasini aniqlashda va ularni tanlashda yuqoridagi takliflardan foydalanish, fikrimizcha, ijobiy natijalarga erishishga olib keladi.

---

<sup>1</sup> «Auditni rejalashtirish» nomli 3-son AMS. O'zbekiston Respublikasining Moliyaviy Qonunlari. №16.

Bizning fikrimizcha, qimmatli qog'ozlar auditining dasturi quyidagicha tuzilishi lozim:

### 3-jadval

#### AUDIT DASTURI

Tekshirilayotgan tashkilot \_\_\_\_\_  
 Audit davri 23.02.2015-28.02.2015  
 Kishi-soatlar soni \_\_\_\_\_  
 Auditorlik guruhi rahbari Karimov B.  
 Auditorlik guruhi tarkibi Jamolov S., Karimov B.  
 Rejalashtirilayotgan auditorlik xatari 6%  
 Rejalashtirilayotgan jiddiylik darajasi 4%

| №  | Audit bo'limlari bo'yicha auditorlik tadbirlari ro'yxati                                     | O'tkazish davri | Bajaruvchi | Auditorning ish hujjatlari           | Izohlar |
|----|----------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------|------------|--------------------------------------|---------|
| 1. | Qimmatli qog'ozlarni hisobga olish bo'yicha hujjatlashtirishni tekshirish                    | 23.02.2015      | Karimov B. | 6-jurnal-order                       |         |
| 2. | Qimmatli qog'ozlarning baholashning to'g'riligini tekshirish                                 | 23.02.2015      | Jamolov S. | 6-jurnal-order                       |         |
| 3. | Qimmatli qog'ozlar inventarizatsiyasi o'tkazilishining to'g'riligini tekshirish              | 24.02.2015      | Karimov B. | 6-jurnal-order                       |         |
| 4. | Qimmatli qog'ozlarning kirim qilinishi va chiqib ketishi bo'yicha operatsiyalarni tekshirish | 24.02.2015      | Jamolov S. | 13-jurnal-order, smeta               |         |
| 5. | Qimmatli qog'ozlar bo'yicha moliyaviy natijalarning to'g'ri aniqlanganligini tekshirish      | 25.02.2015      | Karimov B. | 6-jurnal-order, Bosh daftar, 2-shakl |         |

Uning nomidan auditorlik xulosalariga imzo chekish huquqiga ega bo'lgan auditorlik tashkiloti rahbari: Qurbonov A.

Auditorlik guruhi rahbari: Karimov B.

Qimmatli qog'ozlar auditida auditor tomonidan tekshiruv strategiyasini aniqlash muhim ahamiyatga egadir. Auditorlik tekshiruvi, odatda, har doim muayyan muddat bilan chegaralangan bo'ladi. Ana shu tekshiruvlar tufayli kichik va o'rta korxonalarda auditor tekshiruvi har doim ham muvaffaqiyatli chiqavermaydi.

Shu bois, auditor har bir iqtisodiy sub'ektning shaxsiy xususiyatlarini



hisobga olgan holda tekshiruv strategiyasini aniqlab olishi zarur. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Mijoz faoliyati haqida to'plangan axborotni ko'rib chiqish;

Ichki nazorat tavakkalchiligi va samaradorligiga dastlabki baho berish;

Alohida operatsiyalar guruhlarini tekshiruvining mohiyati va davomiyligini aniqlash.

Shuni ta'kidlash lozimki, tekshiruv strategiyasi auditor tomonidan yozma shaklda tuziladigan reja ko'rinishiga ega bo'lishi kerak. Bunga quyidagilar kiradi:

zaruriy testlar hajmi va turini oldindan aniqlash;

ularni o'tkazish bo'yicha xarajatlarni baholash;

tekshiruv boshlangunicha barcha asosiy masalalar bo'yicha mijoz bilan o'zaro kelishish;

mazkur mijozda auditni bajarish va uning sifatini asoslaydigan dalillarga ega bo'lish;

mijoz biznesi haqida axborot olish (faoliyat turi, tuzilishi va aloqasi, siyosati, huquqiy holatlari).

Bizningcha, auditor tekshiruv strategiyasi bu tekshiruv maqsadiga erishishning eng oqilona yo'llarini tanlashga asoslangan hamda auditor tajribasi, malakasi, auditor firmasi va mijoz hamkorligining uzoq muddatlilikiga, ya'ni mijoz bilim darajasiga, auditda echiladigan masalalar mohiyatiga va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi. Bu masalalarni echishda xorijiy tajribalar va boshqa elementlarning amaliyotga tadbiiq etilishi muhim ahamiyatga egadir.

Ayniqsa, auditorlar faoliyatini tender qilish va ularni baholash tufayli sifatli kafolatlangan audit-konsalting xizmatiga erishishga imkoniyat yaratadi.

Qimmatli qog'ozlar auditini xalqaro andozalar asosida tashkil etar ekanmiz, asosan, AQShda qo'llaniladigan tajribalardan keng foydalanishimiz lozim bo'ladi. Bizningcha, auditorlik munosabatlarini o'rganishda AQShdagi quyidagi tajribalar asos bo'lishi mumkin:

- audit o'tkazish ob'ektlarini ajratib olish, ya'ni davlat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari va xususiiy korxonalar ichidagi auditorlik xizmatlari;

- auditning vazifalarini ajratib olish byudjet tushumlari va xarajatlari, hisobotlardagi moliyaviy natijalar ustidan nazorat qilish, zarur hollarda mulkning saqlanishini nazorati va hokazolar.

- hududlarda xizmat qilayotgan auditorlik firmalarining ta'sir doirasini kuchaytirish.

Umuman, bu fikrlar mulk munosabatlariga va hisob munosabatlarining o'zgarishidan kelib chiqayotgan bozor iqtisodiyoti talablariga to'liq javob beradi, deb o'ylaymiz.

Auditorlik tekshiruvi natijalari bo'yicha qaror ichki audit xizmati bilan auditorlik xizmati ko'rsatishga shartnoma tuzgan tegishli bo'linma rahbari tomonidan qabul qilinadi.

Shuningdek, har bir auditorlik xizmati vaqtida:

Auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunga muvofiq kelishligi;

Ishlab chiqarilgan va amaliyotda qo'llanilayotgan auditning umumiy standartlariga asoslanishi;

Auditning milliy standartlariga muvofiq amalga oshirilishi kerak;


Bizning nazarimizda xorijiy rivojlangan davlatlarda qo'llanilayotgan xalqaro audit standartlarining ayrim tamoyillarini atroflicha o'rganib chiqish va auditning milliy standartlari bilan o'zaro farqli tomonlarini ko'rib chiqishimiz mumkin. Bundan maqsad auditorlik tekshiruvining asosiy elementlarini o'rganish imkoniyati yuzaga keladi.

Korxonalarda mavjud resurslardan samarali foydalanish, ularning hisobi va nazoratini bozor talablari asosida tashkil qilishda o'ta dolzarb hisoblanadi. Auditorlik standartlari auditorlik tekshiruvlarining barcha jihatlarini belgilab beradi. Jumladan, auditorlik tekshiruvi vaqtida dalillarni to'plash, ularni xulosa tuzish vaqtida isbot sifatida ko'rsatish jarayonida auditorlik standartlari muhim rol o'ynaydi.

Qimmatli qog'ozlar auditini samarali tashkil etishda dalillar yig'ishga muhim e'tibor qaratish lozim. Auditorlik dalillari tekshiruvda alohida ahamiyatga ega. Zero, AQShlik iqtisodchi olimlarning ta'kidlashicha, dalillar keyinchalik

auditorlarga audit protseduralarini belgilab olishlariga ko'mak beradi.

Dalillar yig'ish audit protseduralari bilan chambarchas bog'liq. Hozirgi kunda milliy auditorlik tashkilotlarida ularning bog'liqlik tomonlari tekshiruvning sifatli bo'lishi uchun qo'llanilmaydi. Dalillar tekshiruvda mavjud haqiqiy axborot va audit protsedurasini belgilashga xizmat qiladi. Ushbu jarayon 5-chizmada ko'rsatib o'tilgan.




**5-chizma. Haqiqiy axborot va audit protsedurasining auditorlik standartlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik<sup>19</sup>.**

5-chizmadan ko'rinib turibdiki, auditorlik standartlari nafaqat qimmatli qog'ozlar hisobining to'g'ri yuritilganligi bo'yicha dalillar yig'ish, balki, o'sha dalillarni yig'ish paytida auditordan talab qilinadigan malaka va axloq qoidalarini, tekshiruv paytida qo'llanilishi mumkin bo'lgan auditorlik protseduralarini (taomillarini), shuningdek ushbu dalillarni to'plashda qo'llaniladigan usullarni ham belgilab beradi.

<sup>19</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Xalqaro amaliyotdan ma'lumki, auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishda test usulini qo'llash jobiy samara beradi. Testlash usulini investitsiyalar auditida ham qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, investitsiyalar auditida testlash jarayoni quyidagicha tashkil etilishi lozim (6-chizma):



#### 6-chizma. Investitsiyalar auditida bo'yicha testlarni ishlab chiqish<sup>20</sup>.

Yuqoridagi chizmadan ko'rinib turibdiki, auditorlik tekshiruvda test tadbirlari tekshiruvning butun ko'lamini: moddiylik darajasini va ichki nazorat tizimini baholash, tavakkalchilik darajasini aniqlash, audit protseduralarini va tekshiruvda qo'llaniladigan tanlash populyatsiyasi ko'lamini belgilash imkonini beradi.

Umuman olganda qimmatli qog'ozlar auditida testlash usuli yuqori samara beradi. Bizning fikrimizcha, bu nafaqat ichki nazorat tizimining ishonchliligini baholash, balki auditorlik tekshiruvini o'tkazish dasturiga tuzatish kiritishga ham imkon yaratadi.

<sup>20</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

### **3.2. Qimmatli qog'ozlar auditini o'tkazishda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash**

Qimmatli qog'ozlar auditini kompyuter texnologiyalari asosida tashkil etish faqatgina mablag' va vaqtnigina tejamadan, qo'lda olinishi qiyin bo'lgan axborotlarni ham operativ olishiga yordam beradi. Bu axborotlar asosan xo'jalik yurituvchi sub'ektning butun strategiyasini, moliyaviy-xo'jalik faoliyatini yaxshilash yo'llarini aniqlashga taalluqlidir. Kompyuterning hisoblash quvvatidan foydalanish natijasida o'tgan hisobot davri ma'lumotlari asosida hisobot davrida xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariyati qanday yo'l tutishi lozim, hamda hisobot davridan keyingi davrda rahbariyat qanday yo'l tutishi lozimligi xaqida aytib berish mumkin.

Elektron hisoblash mashinalari hozirgi vaqtda hisob-kitob ishlarini amalga oshirishda qo'llanishi bilan birga hisob ma'lumotlarini yig'ish, ularni qayta ishlash, jamlama va tahliliy hisob registrlarini tuziish, hisobot shakllarini to'ldirish, auditorlik ishchi xujjatlarini yuritish, auditorlik xulosalari va hisobotlarini to'lg'azish va boshqa bir qancha ishlarni bajarishda keng qo'llanilmoqda. Amaliyotda kompyuterlardan keng foydalanish buxgalteriya hisobi va auditni tashkil qilishning yangi usullarini vujudga keltiradi. Hozirgi davrda audit vazifalarini axborot texnologiyasi asosida markazlashtirilgan holda tashkil qilish quyidagilarni ta'minlaydi:

- foydalanuvchining ish joyida o'rnatilga kompyuterlarni qo'llash, bu erda vazifalarni echish auditor tomonidan bevosita uning ish joyida bajariladi;
- auditorlik tashkilotining iqtisodiy vazifalarini integratsiyalangan xolda ishlab chiqilishini ta'minlovchi maxalliy va ko'p bosqichli hisoblash tarmoqlarini shakllantirish;
- hisoblash texnikasida bajariladigan auditorlik hisoblashlar tarkibini ko'paytirish;
- auditorlik kompaniyasi uchun korxonaning yagona taqsimlangan ma'lumotlar bazasini yaratish;

- qog'ozsiz texnologiyalarga o'tish xujjatlarini yig'ish hamda ro'yxatga olish operatsiyalar mehnattalabligi darajasini kamaytiradi;
- audit vazifalarini echshni integratsiyalash;
- dialogli usulda amalga oshirish yo'li bilan axborot xizmat ko'rsatishni tashkil etish imkoniyati.

Hisob tizimi va hisobotni shakllantirilishini tashkil etilishini nazorat qilishda auditor turli ko'rsatkichlarni metodik hisoblanish tartiblarini, jumladan, soliq stavkalarini, koeffitsientlar, qonunchilikni va boshqa me'yoriy xujjatlarni bilishi talab etiladi. Yana hisobning turli uchastkalarida hisoblanadigan ko'rsatkichlar tizimini bilishi lozim. Nazorat muolajalarining tipik shakllarini mavjudligi audit jarayonini avtomatlashtirish imkoniyatini yuzaga keltiradi, bu esa albatta auditorlik tashkilotlarini ish sifatini samaradorligini oshirishga imkon tug'diradi. Kompyuterning xotirasida ko'plab me'yoriy-xujjatlarni saqlab qolishi, bir tarafdin auditor imkoniyatlarini kengaytirsam, boshqa tarafdin auditor qo'lida kuchli dastak bo'luvchi maslahat-nazort tizimini yaratadi.

Jahon amaliyotida, auditorlik faoliyatini avtomatlashtirishda dasturlar quyidagi komponentlardan iborat bo'lishi lozim:

audit jarayonida aks etuvchi iqtisodiy-matematik, iqtisodiy-tashkiliy va axboriy modellardan;

modellarni shakllantirishni ta'minlovchi texnik, dasturiy, axborot va boshqa vositalar.

Yuqoridagi komponentlardan kelib chiqib kompyuterlashgan tizim ikki qismdan funktsional va ta'minlovchi qismdan iborat bo'ladi. Funktsional qismida audit o'tkazish jarayonining axborot va matematik modellarini metodikalari va yo'llari metodik jamlanmasidan tashkil topadi. Ta'minlovchi qismi audit funktsiyalarini amalga oshirishda zarur bo'luvchi, dasturiy, axboriy, texnik va boshqa to'ldiruvchi qismlardan iborat bo'lishi lozim.

Kompyuter tizimining funktsional qismini to'liqroq yoritadigan bo'lsak, u bir qancha vazifalar kompleksidan tashkil topadi masalan:

audit turi (ichki, tashqi);

audit funktsiyasi (nazorat-reviziya, baxolash-maslahat, maslahat-pragnozlash va x.);

audit uchastkasi (hisob tizimi, xujjatlashtirish, nazorat tizimi va x.).

Auditni kompyuterlashgan tizimini tashkil etish uni nima maqsadga erishish uchun mo'ljallanganidan kelib chiqadi. Maqsaddan kelib chiqqan xolda ma'lumotlar bazasi yaratiladi.

Ma'lumotlar bazasi quyidagicha tashkil etilishi mumkin:

standart operatsion tizimlar va qo'shimcha dasturlar taxlil qila oladigan bir tipdagi xujjatlarni maxalliy fayllarini yig'ish;

maxsus kriteriyalarga javob beruvchi birlamchi xujjatlar axborotlar bazasi sifatida;

logik programmalar vositalari yordamida yoki boshqa dasturiy tizimlar yordamida qayta ishlanuvchi ekspert-auditor bilimlarini qoidaviy shakli, qoidalar bazasi.

Shuni ta'kidlab o'tish mumkinki xozirgi vaqtda axborot texnologiyalari bozorida ko'pgina audit dasturlari ishlab chiqilmoqda va takomillashtirilmoqda, jumladan "IT Audit", "AuditNet", "AuditPro", "AuditSystem/2™".

Auditni axborot texnologiyalari asosida o'tkazish jarayonida auditor quyidagilarga e'tibor qaratishi lozim, ya'ni operatsiyalar kompyuter tomonidan to'g'ri bajarilayotganligini, operatsiyalarning yo'qotilmagani, qo'shilmaganligi, o'zgartirilmaganligi, xatolarni o'z vaqtida tuzatilganligi, bajarilish natijalarini aniqligi, axborotga begona shaxslarning kirishi cheklanganligiga.

Bizningcha auditni avtomatlashtirilgan tizimlarini va dasturlarini ishlab chiqishda mavjud audit institutlari faol ishtirok etishi lozim. Ularning asosiy faoliyati auditni dasturiy ta'minot tizimi bo'yicha kadrlar tayyorlashga qaratilishi lozim.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalanuvchilar guruhiga kiruvchi auditorlar hisobot ma'lumotlarini tekshirishda asosan kompaniyaning elektron ma'lumotlar bazasiga tayanmoqda. Elektron tizimlar bilan ishlash auditorlik tekshirishning yangi usullarini va ma'lumotlar bazasining keng

tarmoqli protseduralarini qo'llashni talab etmoqda.

Texnologik sohadagi o'sish moliyaviy ma'lumotlarni qayta ishlashni kengaytirdi. Shuningdek, auditorlarning ishini birmuncha engillashtirdi. Bugungi kunda ma'lumotlarni tekshirishning bir nechta dasturlari yaratilgan bo'lib, ularning eng keng qo'llanilayotganlari tarkibiga WebTrust va SysTrust dasturlarini qo'shishimiz mumkin. WebTrust tizimida auditor korxonaning butun iqtisodiy holatini elektron holda ko'rishi mumkin, SysTrust tizimida korxona moliyaviy, ishlab chiqarish, xo'jalik faoliyatining aniq yo'nalishi ko'rsatiladi. Umuman ushbu ikki tizim auditorlarning dalil yig'ish, ma'lumotlar to'plash va qaror chiqarishga sarflaydigan vaqtini kamaytiradi.

Ammo bugungi kunda korxonalarda buxgalteriya hisobining bir nechta tizimlari qo'llanilmoqda. Masalan, yangi o'rnatilgan tizim oldingi ma'lumotlarni bexosdan o'chirib tashlashi mumkin. Shu boisdan ham auditor aynan korxonada qanaqa tizim qo'llanilayotganini bilishi lozim.

## 5-jadval

### **Qimmatli qog'ozlarga oid ma'lumotlarining kompyuter muhitida tashkil etilishining auditorning kasbiy tavakkalchiligiga bog'liqligi**

| <b>Auditorlik tavakkalchiligi quyidagi xolatlarda ortadi</b>                                   | <b>Auditorlik tavakkalchiligi quyidagi xolatlarda kamayadi</b>                                                                                                          |
|------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. Kompyuter muhiti markazlashtirilmagan                                                       | 1. Avtomatlashtirish tizimlari litsenziyalangan                                                                                                                         |
| 2. Kompyuter uskunalarining geografik tarqoqligi mavjud                                        | 2. Auditorlar uchun maxsus ishlangan dasturiy ta'minot tufayli nazoratning ayrim turlarini chuqurlashtirish imkoniyati mavjud                                           |
| 3. Buxgalteriya xodimlarining axborot texnologiyalari sohasidagi bitim darajalari etarli emas  | 3. Dasturiy ta'minotning maxsus nazorati mavjud                                                                                                                         |
| 4. Kompyuter muhitining amal qilishida ichki nazorat mavjud emas                               | 4. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning axborot siyosati uning rahbariyati tomonidan omilkorlik bilan belgilanadi                                                            |
| 5. Kompyuter tizimiga ruxsat etilmagan kirishni cheklash bo'yicha zaruriy choralar mavjud emas | 5. Barcha bo'linmalar. filiallar va boshqa alohida bo'linmalar, shu'ba korxonalar kompyuterning yagona muhitida ishlaydi, yagona zamonaviy dasturiy ta'minoti qo'llaydi |
|                                                                                                | 6. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning axborot siyosati kompyuter tizimining asosiy foydalanuvchilari bilan kelishilgan                                                     |
|                                                                                                | 7. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning kompyuter tizimi rivojining uzoq muddatli rejasi mavjud                                                                              |

Auditorning iqtisodiy axborot avtomatlashtirilgan tizimidan foydalaniladigan xo'jalik yurituvchi sub'ektida bajarilgan ishlar bo'yicha rejalashtirish, tahlil etish, nazorat qilish va yakunlashda sharhlash va xulosalash uchun kompyuter tizimi bo'yicha etarli darajada bilimlarga ega bo'lishi maqsadga



muvofigdir.

Mazkur holatda auditorning vazifasi:

- kompyuter muhiti ta'sir ko'rsatadigan hisobga olish va ichki nazorat tizimini etarli darajada va barcha ahamiyatli jihatlarda tushunish;
- kompyuter muhitining tavakkalchilikni baholashga ta'sirining samarasini belgilash;
- loyihani tayyorlash va boshqaruv testlari hamda mustaqil rusum-qoidalarini bajarish.

Auditorida ko'rsatilgan bilimlar mavjud bo'lmaganda axborot texnologiyalari sohasida ekspert ishidan foydalanish lozim. Qo'llanilayotgan kompyuter tizimini baholash uchun ekspert ishidan foydalanilgan hollarda:

- Ekspertni tayinlash va ekspert ishidan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan boshqa jarayonlar «Ekspert ishidan foydalanish» auditorlik standarti shartlariga to'liq ravishda muvofiq kelishi shart;
- Auditor, ekspert ishini kuzatib borish uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektning kompyuter tizimi haqida etarli bilimga ega bo'lishi shart va shu bilan birga ustunlik holatini saqlab turishi kerak:
  - ekspert faqat axborotga ishlov berish tiziminigina belgilaydi;
  - auditor bu tizim yordamida shakllantirilayotgan hisobotni ishonchliligini baholaydi.

Auditorlik tashkiloti tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektning hisoboti to'g'risidagi fikrni ifoda etish va shu fikr asosida tuzilgan auditorlik xulosasi uchun to'liq javobgardir.


Tekshiruvni o'tkazishda ekspert auditorga quyidagi hollarda yordam ko'rsatadi:

- a) kompyuter tizimi ishonchliligini umuman baholashda;
- b) tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektning kompyuter tizimida amal qilayotgan buxgalterlik dasturiy ta'minotining sotib olinishi qonuniyligini va litsenzion sofligini baholashda;
- v) hisob-kitoblar algoritmini tekshirishda;

g) kompyuterda auditor uchun zarur bo'lgan tahliliy umumlashma hisob-kitob va hisobot registrilarini shakllantirishda.

Kompyuter boshqaruvi umumiy vositalarining maqsadi kompyuter tizimi ustidan nazorat chegaralarini o'rnatish va ichki nazorat maqsadlariga erishilganligiga maqbul ishonch darajasini ta'minlashdan iboratdir.

Boshqaruvning umumiy vositalari quyidagilarni o'z ichiga oladi (7-chizma).



**7-chizma. Kompyuter boshqaruvining umumiy vositalari tarkibi<sup>21</sup>.**

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot ma'lumotlarini elektron audit qilganida auditor kompyuterdagi ma'lumotlar ustidan, axborotlarning chiqarilishi

<sup>21</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqildi

ustidan nazorat qay darajada o'rnatilganligini aniqlashi shart.

Kompyuter ma'lumot fayllari va kompyuter ishi ustidan nazorat quyidagi holda auditor tomonidan ijobiy deb topilishi mumkin:

- operatsiyalar kompyuter tomonidan to'g'ri bajarilmoqda;
- operatsiyalar yo'qotilmagan, qo'shilmagan, nusxa ko'chirilmagan va o'zgartirilmagan;
- xatolar o'z vaqtida to'g'rilangan va bartaraf etilgan.

Axborotlarning chiqarilishi ustidan nazorat quyidagi holda auditor tomonidan ijobiy deb topilishi mumkin:

- bajarilgan natijalari aniq;
- axborotning chiqishida undan begona shaxslarning foydalanishi cheklangan;
- axborot uni olish uchun ruxsatnomaga ega bo'lgan tegishli shaxsga o'z vaqtida berilgan.

Kompyuterga oid asosiy suiiste'molliklar quyidagi shart-sharoitlar mavjud bo'lganda yuz berishi mumkin:

- kompyuterga yoki terminalga bevosita kirish;
- ma'lumot fayllariga kirish;
- vositalardan shaxsiy maqsadlarda foydalanish imkoniyatlarining mavjudligi;
- tizimiy axborotning qulayligi;
- kompyuter dasturlariga kirish imkoniyati.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, auditor qimmatli qog'ozlar hisobiga oid ma'lumotlarini elektron audit qilishda, avvalo, o'sha mijoz korxonadagi ma'lumotlar bazasining qanchalik to'g'ri kiritilganligiga, kompyuter ma'lumotlarining qay darajada saklanayotganligiga e'tibor berishi lozim. Bu tekshiruv natijalari auditorlik xulosasi va hisobotida aks ettirilishi kerak.

### **III bob bo'yicha xulosa**

Dissertatsiyaning 3-bobida qimmatli qog'ozlar auditini takomillashtirish masalalari yoritib berilgan. Mazkur bobda qimmatli qog'ozlar auditining uslubiy

jihatlarini takomillashtirish va qimmatli qog'ozlari auditini o'tkazishda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash tartibi bayon etilgan.

Qimmatli qog'ozalar auditini tashkil etishda, avvalo, uning dasturini tuzib olish lozim. Ammo, hozirgi kunda ko'pchilik milliy auditorlik tashkilotlarida auditorlik tekshiruvining dasturi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan qabul qilingan «Auditni rejalashtirish» nomli 3-son AMS asosida tuzilmayapti. Vaholanki, ushbu standartda ko'rsatilgan tadbirlar auditorlik tekshiruvida muhim o'rinni egallaydi, shu bilan birgalikda u «Auditni rejalashtirish» nomli 4-son auditning xalqaro standartiga to'la-to'kis mos keladi.

Elektron hisoblash mashinalari hozirgi vaqtda hisob-kitob ishlarini amalga oshirishda qo'llanishi bilan birga hisob ma'lumotlarini yig'ish, ularni qayta ishlash, jamlama va tahliliy hisob registrilarini tuziish, hisobot shakllarini to'ldirish, auditorlik ishchi xujjatlarini yuritish, auditorlik xulosalari va hisobotlarini to'lg'azish va boshqa bir qancha ishlarni bajarishda keng qo'llanilmoqda.

## **Xulosa**

Respublikamizda auditorlik faoliyatini yanada faol rivojlantirish uchun quyidagilar chora-tadbirlarni bajarish tavsiya etiladi va uni takomillashtirish uchun quyidagi takliflar maqsadga muvofiqdir:

1. Bizning fikrimizcha qimmatli qog'ozlar auditi quyidagi keltirilgan tamoyillar asosida tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi:

- to'liqlik;
- mavjudlik;
- xuquq va burchlar;
- baholash;
- aniqlik;
- hisob davrining chegaralanganligi;
- taqdim qilish va ochib berish.

2. Auditorlik tashkiloti xodimlari malakaviy talablarlar hisoblangan mustaqillik, halollik, xolislik, sirni saqlash va kasbiy hulq-atvor tamoyillariga rioya qilishlari lozim va bu bo'yicha auditorlik tashkilotlarida kundalik joiry nazorat qilish tartibi ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

3. Magistrlik dissertatsiyasida qimmatli qog'ozlar auditining dasturi ishlab chiqildi. Fikrimizcha, ushbu dastur amaliyotda qo'llanilsa, auditorlik tekshiruviga taqsimlanadigan vaqtning optimallashtirishiga, audit ishining sifatining oshishiga olib keladi.

4. Qimmatli qog'ozlar auditi asosan kompyuter ishlanmalari sharoitida o'tkaziladi. Bunda auditorlar tekshirish o'tkazish jarayonida oddiy buxgalteriya hisobi yuritishda bo'lgani kabi kompyuterli buxgalteriya hisobi yuritishda ham bir xil bo'lgan quyidagi muolajalarini qo'llashlari lozim:

- mijozning turli aktivlarini inventarizatsiya qilishda ishtirok etish yoki kuzatish;

- uchinchi tomondan mijoz hisob raqamlaridagi qoldiqlarining, hisobotning ma'lum bir bo'limlari buyicha haqqoniyligini va xo'jalik

operatsiyalarining to'g'riligini tasdiqlovchi ma'lumotlarni yozma ravishda olish;

- mijozning uchinchi shaxslardan olgan hujjatlarini tekshirish.

Kompyuter sharoitida audit o'tkazish uslubiyotini ishlab chiqish jarayonida biz quyidagi savollarni aniqlab olishimiz zarur:

- buxgalteriya hisobini avtomatlashtirilgan va avtomatlashtirilmagan tizimida yuritish orqali;

- kompyuterlashtirilgan muhitda audit tekshirish o'tkazishni rejalashtirishda hisobga olinadigan qo'shimcha omillarning mavjudligi;

- nazoratning umumiy va ustama uslublari o'rtasidagi farq;

- nazoratning nosamaradorligini baholash fazasida ma'lumotlarni elektron tahlil qilishning ta'siri;

- funktsional majburiyatlarni taqsimlash, dasturli faylar va ma'lumotli fayllarga kirishni nazorat qilish, apparat mablag'larini nazorat qilish tizimlarni tushuntirish va aynan o'xshatish.

- nazoratning ustama uslublarining ro'yxati va ularning izohlanishi.

- minikompyuterlarga asoslangan tizimlar nazoratining o'ziga xosligini muhokama qilish.

Kompyuter tizimi muhitida auditorlik tekshirish o'tkazishning asosiy maqsadi - shu muhitda tayyorlangan ma'lumot tavakkalchiligini eng kam darajaga yaqinlashtirishdan iborat.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

#### I.1. O'zbekiston Respublikasining Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2003.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – T.: Adolat, 2008.
3. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni - Toshkent 1996 y. 30 avgust.
4. O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri) 2000 y. 26 may. //Soliqlar va bojxona xabarлари, 2000 yil 13 iyun.
5. O'zbekiston Respublikasi «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi qonuni, 2000 yil, 77-II-son
6. “Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 2008 yil 26 sentyabr.

#### I.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Lizing faoliyatini rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Farmoni. 28.08.2002 y., PF № 3122-son. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 apreldagi ”Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ular ko'rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to'g'risida”gi PQ–615-sonli Qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 2 iyuldagi ”Auditorlik tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ–907-sonli Qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida”gi

Qarori. 26.11.2010., PQ-1438-son. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

11.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi "Aktsiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4720 Farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

### **I.3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari**

12.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 22 sentyabrdagi «Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarning ahamiyatini oshirish to'g'risida»gi 365-sonli qarori.-T.: «Xalq so'zi», 2000 y, 26 sentyabr. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

13.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 oktyabrdagi "Ustav fondida davlat ulushi bo'lgan korxonalarning samarali boshqarilishini va davlat mulkini zarur darajada hisobga olinishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 215-sonli Qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

### **I.4. O'zbekiston Respublikasi vazirliklarining me'yoriy hujjatlari.**

14. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2002 yil 27 dekabrdagi "Moliyaviy hisobot shakllari va ularning to'ldirilishi bo'yicha qoidalarni tasdiqlash to'g'risida" gi 140-sonli buyrug'i. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

15. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan «Auditorlik faoliyatining milliy standartlari» 1998-2013 yillar. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

## **II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlari**

16.Karimov I. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. –T. O'zbekiston. 2011.

17.Karimov I. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. –T. O'zbekiston. 2012.

18.Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. –T.: O'zbekiston, 2013.



19. Karimov I. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. –T. O'zbekiston. 2014. 64 bet.

20. Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish - ustuvor vazifamizdir. Mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza. -T.: "O'zbekiston". 2015. -72b.

### **III. Ilmiy monografiya, o'quv qo'llanma va darsliklar**

21. Арабян К.К. Организация и проведение аудиторской проверки: учеб. пособие. – М.:Юнити-Дана, 2009. – 447 с

22. Булыга Р.П. Аудит: учебник для бакалавров. – М.:Юнити-Дана, 2009. – 431 с.

23. Воронина Л. И. Аудит. Теория и практика. Учебник для бакалавров – М.: Омега-Л, 2011. 680 с.

24. Грачева М.Е. Международные стандарты аудита (МСА): Учебное пособие. - М.: Издательство ПРИОР, 2005. - 100 с.

25. Дўсмуратов Р.Д. Аудит асослари. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2003.-612 б.

26. Ерофеева В. А., Пискунов В. А., Битюкова Т. А. Аудит – М.: Юрайт, 2012. 640 с.

27. Жарыгласова Б.Т. Международные стандарты аудита. Учебное пособие. - М.: НОРУС, 2005. - 400 с.

28. Карагод В. С. Аудит. Теория и практика. –М.: Юрайт, 2012. 6 стр.

29. Мазуренко А.А. Зарубежный бухгалтерский учет и аудит. Учебное пособие. - М.: КНОРУС, 2005. - 240 с.

30. Подольский В. И., Савин А.А. Аудит –М.: Юрайт, 2012. 592 стр.

- 31.Рогоуленко Т.М. Аудит. –М.: Юрайт, 2012. 540 с.
- 32.Сафонова М.Ф., Жминько С.И. Практический аудит. –М.: Феникс, 2012. 512 с.
- 33.Савин А.А., Савин И.А., Савин Д.А. Аудит для магистров. Теория аудита. –М.: Инфра-М, 2012. 272 с.
34. Суглобов А. Е., Жарылгасова Б. Т., Савин В.Ю., Бухгалтерский учет и аудит – М.: Титан эффект, 2012. 520 с.
- 35.Суйц В.П, Ситникова В.А. Аудит: учебное пособие. - 2-е изд., стер. – М.: Кнорус, 2010. – 168 с.
- 36.Ситнов А.А. Операционный аудит: теория и организация. Учебное пособие. –М.: Высшее образование, 2011. 240 с.
- 37.Савин А.А., Савин И.А., СавинД.А. Аудит для магистров. Практический аудит. –М.: Инфра-М, 2012. 192 с.
- 38.Соколов Я.В. Бухгалтерский учет в зарубежных странах. Учебник. –М.: Проспект, 2005. 664 с.
- 39.Сотникова Л.В. Оценка состояния внутреннего аудита: Практическое пособие. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2005. - 144 с.
- 40.Суйц В.П. Аудит: Общий, банковский, страховой. Учебник для вузов. - М.: ИНФРА-М, 2005. - 662 с.
- 41.Харченко О.Н., Самусенко С.А., Фёрова И.С. Аудит: практикум. – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Кнорус, 2010. – 288 с.
42. Хоханова И. И., Хахонова Н. Н., Богатая И. Н. Аудит – М.: Мини Тайп, 2011. 464 с.
- 43.Черных М.Н., Юдина Г.А. Основы аудита: учебное пособие. – 4-е изд., стер. – М.: Кнорус, 2011. – 352 с.
- 44.Юдина А.В. Основы аудита: учебное пособие. – М.:Кнорус, 2011. – 352 с.

#### **IV. Avtoreferatlar**

45. Каримов А.А. Корпоратив бошқарув тизимида бухгалтерия ҳисоби ва аудитни такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари: Иқт.фан.док. дис. ...автореф. – Тошкент: Ўз.Р.БМА. 2009. – 34 б.
46. Тураев А.К. Ўзбекистонда ички аудитни такомиллаштириш йўналишлари: Иқт.фан.ном. дис. ...автореф. – Тошкент: Ўз.Р.БМА. 2012. – 22 б.

#### **V. Интернет сайтлари**

47. <http://www.audit.uz.>
48. <http://www.gov.uz.>
49. <http://www.lex.uz.>
50. <http://www.mf.uz.>
51. <http://www.uza.uz.>

#### **VI. Ilmiy maqola va konferentsiya tezislari**

52. Qosimov X. O'zbekistonda auditorlik faoliyatini rivojlantirishning yangi bosqichi. // Soliq solish va buxgalteriya hisobi. – Toshkent, 2008. - №10. – B. 26-28.
53. Qo'ziev I. Aktsiyadorlik jamiyatlarida auditni rejalashtirishning sifatini oshirish // Moliya. – Toshkent, 2010. – №2. 81-84 betlar.